

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI

**MA'NAVIYAT, MA'RIFAT VA TARBIYA  
HAQIDA HIKMATLAR GULDASTASI**

**Uslubiy qo'llanma**

TOSHKENT – 2014

Ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqida hikmatlar guldastasi. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun uslubiy qo'llanma. Tuzuvchi Muhamedov B.E. -Toshkent: ToshDTU, 2014. 115 b.

Uslubiy qo'llanmada ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqida – ilm, o'qituvchi-muallim, ustoz, hunar, aql, to'g'rilik va egrilik, yaxshilik,adolat, oila, tarix-xotira, halollik, farzandlar, mehr-oqibat, inson qadri, mehnat, sabr, yolg'onchilik, hiyonat to'g'risida alloma Arastu, hassos qalb egalari, buyuk ajdodlarimiz - Ahmad Yassaviy, Abu Rayhon Beruniy, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Yusuf xos Hojib, Abdulla Avloniy, Oybek, Abdulla Qahhor va zamondosh ulug'shoirlarimiz Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Mahmud Toir va boshqalarning hikmatli so'zlaridan namunalar keltirilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma o'quvchi yoshlar hamda keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga asosan nashr qilindi.

Taqrizchilar:

f.f.n., dotsent - M.A. Ortiqov  
ToshDTU, k.f.n., dotsent – O.G'. Azimov

*Ma'naviyat –insonni ruhan poklanish,  
qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning  
ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon –  
e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini  
uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha  
qarashlarining mezonidir.*

*Islom Karimov*

### **So‘z boshi**

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligi xalq ma’naviyatining tiklanishi, ma’rifat, fan va ta’lim-tarbiya rivoji, eng muhim jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir. Har qanday mamlakatning taraqqiyotini ta’minlash, yetuk malakaga ega bo‘lgan yuksak bilimli intellektual kadrlarga bog‘liq. Yuksak bilimli va intellektual avlodni tarbiyalash - mamlakatimizni barqaror taraqqiy etishda hamda modernizatsiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi bilan singadi. Ma’naviyatini, ma’rifatini, tarbiyasini, tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan judo bo‘lishi mumkin. Bir necha asrlar davomida tarixdagi buyuk shaxslar tomonidan yaratilgan hayotda sayqallangan hikmatlar guldastasi insonlarni tarbiyalash jarayonida muhim hisoblanadi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, har bir mamlakatning kelajak poydevori bilim maskanlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi bugungi yoshlarning qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Ta’lim maskanlari, mahalla va oilalarimizda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ongu-shuurida ruhiy poklik, ma’naviy uyg‘oqlik tuyg‘ularining mustahkam qaror toptirishni samarali va ta’sirchan tashkil etishga e’tibor qaratish ayni kun uchun dolzarbdir.

Yurtboshimizning «Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch» asarida bu borada aniq vazifalar belgilab berilgan. Yoshlarning ma’naviy olamini asrash va mustahkamlash, boyitish, yosh avlod qalbi va ongini turli zararli tashqi va ichki g‘oyalar ta’siridan saqlash va himoya qilishning muhim yo‘llari teran tahlil qilib berilgan.

Ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda mahalla hamda oilaning roli va o‘rni beqiyosdir. Buning sababi mahalla chinakam milliy qadriyatlar maskani hisoblanadi. Mahallalarda kuchli ta’sirga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri, mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarniadolat va ma’naviy

mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda yoshlar qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish bo'yicha izlanishlar olib borilyapti.

Bir so'z bilan aytganda «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asari xalqimizning ruhan poklanishida, yoshlarning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodli qilishda muhim ahamiyat kasb etadi, ma'naviyat haqidagi tasavvurlarni boyitadi, ularni ma'naviy kamolat sari intilishga da'vat etadi va kelajakka eltuvchi yo'llarni ko'rsatib beradi.

Oliy ta'lim maskanida 56 yil ilmiy-pedagogik faoliyatim davomida hayotiy tajribalarga ega bo'lgan azizu mukarram zotlarim ota va ona avlodlarim, sadoqatli onam-Mukarramxon Muhamedovadan eshitgan hayot saboqlaridan hamda buyuk ajdodlarimiz, allomalarimiz va zamondosh ulug' shoirlarimizning ma'naviyat, ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqida hikmatli guldastalaridan olingen saboqlarini nafaqat o'z farzand-nabiralarimga, balki xalqimizning har bir farzandlarini o'z surriyotimdek ko'ngilga yaqin o'quvchi-yoshlar bilan baham ko'rishni lozim deb topdim. Shu bilan birga insonning mas'uliyati, munosabati, sabri va ayniqsa, uning taqdir sinovlariga bardoshi hamda ojizligi haqida masalalar ushbu risolaning turli yoshdagi insonlarga doimo asqotishidan dalolatdir.

T.f.d., professor. B.E.Muhamedov

### *Hikmatli so'zlar guldastasi.*

Essiz olim, amal qilmay yo'lida qolur,  
O'qub uqmay, dunyo molin qo'lg'a olur,  
Manmanlikda aziz umrin zoe' qilur.

Ey birodar munofiqqa bo'lma ulfat,  
Kim ulfatdur – boshi uzra yuz ming kulfat.

Ochdan o'lsang, nomarddan hargiz minnat tortmag'il.  
Dunyo meni mulkim degan sultonlarg'a,  
Olam molin sonsiz yig'ib olg'anlarg'a,  
Ayshu ishrat birla mashg'ul bo'lg'anlarg'a,  
O'lim kelsa, biri vafo qilmas emish.

Hayf odam – o'z qadrini o'zi bilmas,  
Manlik qilib yaxshilarni ko'zga ilmas.

Odamida zarra ma’ni bo‘lmasa,  
Sen ani odam ko‘rib, odam dema.

Haqiqatning yo‘llarida yuz ming xatar,  
Belin bog‘lab, yo‘lga kirgan oxir yetar.

Insonlik oson emas, manmanlikni qo‘y, adolatli, farosatli,  
Samimiy va ishonchli bo‘l.

O‘qish, fikrlash ham ibodatdir.

Dushmaningga yaxshilik qil va qilgan yaxshililingni minnat qilma.

Ma’rifatsizning karomati ham bo‘lmaydi.

Kuchli, ustun bo‘lsang ham, janjaldan voz kech.  
G‘azabdor bo‘lganiningda yumshoq muomala ko‘rsat, xato qilma.

Insonning eng katta zaifligi o‘z qadrini bilmasligi, manmanlik qilib,  
yaxshilarga ahamiyat bermasligidir.

Bu dunyoda bir do‘st topish oson emas,  
Beg‘am yashamoqni sira ham qilma havas,  
Bor bo‘lsa jaxonda kishi beg‘am bu nafas,  
Yo odam emas, yoki bu olamdan emas.

Yetdim deb shodlikka g‘ururlanma sira,  
Shodlik qatida hamisha g‘am pinhondir.

Mol-dunyo uchun muncha chekarsan qayg‘u?  
Ko‘rdingmi jahonda yashaganni mangu!  
Bu tandagi har bir nafasing omonat,  
Umringga ishonch – eng aldamchi tuyg‘u.

Qattiq bo‘lsang, tig‘dek yuqori tutishar,  
Yumshoq bo‘lsang, mum kabi ezib o‘tishar,  
Egri bo‘lsang, tortishar o‘zga yoydek,  
To‘g‘ri bo‘lsang, o‘qdek uzoqqa otishar.

Himmati ulug‘ kishi sanalgaydir mard,  
Mol-dunyo havasi ko‘ngliga solmas dard.  
Tuproq uyin tasarruf etsa harchand  
Himmat etagiga sira qo‘ndirmas gard.

Nafsingni agar qilib nishon ketgaysan,  
O‘zingni harob etish tomon ketgaysan.  
Boq o‘zingga: kimsanu qayerdan kelding,  
Angla: ne qilarsanu qayon ketgaysan?

Mard elni qo‘yib, chekkaga urmas o‘zini,  
Yo katta tutib el ichra yurmas o‘zini.  
Ko‘z qorachig‘idan ibrat olsa arzir:  
U hammani ko‘rar, ammo, ko‘rmas o‘zini.

Shuhrat noni birla nafs itin shod etma,  
Xalq ichra bo‘lar-bo‘lmas o‘zing yod etma.  
Kamtar bo‘l – o‘zingni qilayin deb mashhur,  
Boy berma diningni yana, barbod etma!

Yomon kishilarga bo‘lma hech hamsuhbat,  
Pok noming ular bulg‘agay aylab g‘iybat.  
Har qancha ulug‘ bo‘lsada, oftobni qara,  
Bir barcha bulut boshiga solg‘ay zulmat.

Odam bo‘lsang, makru firibni tark et,  
Gar bo‘ri emassan, suruv oldidan ket.  
Shon-shuhrat uchun qachongacha g‘am chekasan?  
Bo‘yningni bu og‘ir yukdan qil soqit.

Rost so‘zlaguvchining hamma rohati oldida.  
Olim agar ezgulik etar - oqil o‘sha,  
Ilmiga agar yetmas amal - g‘ofil o‘sha.  
Olimdan agar amal talab etsayu ilm,  
Olim agar etmasa amal - johil o‘sha.

Ey mardum! Shunday kishi so‘ziga qulqoq tutgilkim,  
u donishmand va rostlik tarafdori bo‘lsin!

Pok niyatli kishilar rostlik va do'stlik tarafdaridirlar.

Adashganlarni to'g'ri yo'lga hidoyat qilganlarnigina yaxshi odam deyish mumkin.

Rost so'z sendan qoladigan qutlug' yodgorlikdir.

Hech kim ola olmas molu dunyo bu ilm,  
Haqqa seni yetkazuvchi tanho bu ilm.  
Ila pesha bu olamda faqat, ilm ista,  
Umrинга bag'ishlaguvchi ma'no bu ilm.

Kim yolg'onga og'iz ochsa, undan baxt qushi qochadi.

Sukut –eng buyuk odob.

Gapiruvchi nodon bo'lsa ham tinglovchi dono bo'lmog'i lozim.

Do'stligida rostligi bo'lmagan odamdan yuz o'gir.

Topilmas narsani qidirib ovora bo'lma.

Birovning aybini kovlovchi bo'lma, o'zganining aybini aytmoq nokaslikdir.

Nokasdan oshno paydo qilma,  
Chunki nokas johilga yaqindir.

Nokas teskari esuvchi shamoldir,  
Unga yaqinlashsang, ishing chappa bo'lgay.

Nokaslardan yaxshilik kutmoq nodonlikdir.

Qarilik anjomin yigitlikda tuz, chunki hech kim yosh qolmagay bardavom.

Har kim ishini aqlga muvofiq ado etmog'i xayrlidir.

Inson uchun eng katta dushman nafsdır.  
Ko'p gapirgan - ko'p xato qiladi.

Keraksiz, foydasiz suhbatdan saqlanmoq lozim,  
mazmunli va oz, haqiqiy suhbatlashishga g‘ayrat qilish kerak.

Me’danining odobi – harom yemaslik.

Ota-onas ozor bersa, ranjitsa, og‘ir so‘z aytsa ham darhol qo‘llarini o‘pib,  
yumshatib, duolarini olishga kirishish kerak.

Eng buyuk martaba ilm, eng ulug‘ fazilat kamtarlik, eng ulug‘ boylik-salomatlik.

Inson ish buzuvchi emas, qo‘lidan kelguncha ish bitiruvchi bo‘lishi kerak.

Martabani sabrdan izla,  
Qurolingni ilmdan yasa,  
O‘limni aslo unutma.

Halolni – halol, haromni – harom bilishga o‘rgan.

Xorlik istasang, xiyonatchi bo‘l,  
Be’midan hazar qil.  
Nodonni tirik sanama,  
Kam gapir, oz eginu kam uxla.

Dono ko‘ringan nodondan hazar qil,  
Buhudaga maqtama ham.  
So‘ramasalar javob berma,  
Aytmagan joyga borma.

Har kimning nonini yeya berma, ammo hammaga non yedir.

Molu davlat orqasidan yuguruvchi bo‘lma.

Oxiri ziyon keltiradigan foydaning atrofida aralashma.

Martabayu izzatni ilmdan izla.

Nokasdan qarz olma.

Ajdodlarning qadrini e'zozla.

Odamlarning oldida nima desang, orqasidan ham o'shani gapir.

Dushmaning bilan inoqlashgan do'stdan qo'rqi.

Tuhmat bor joydan qoch.

Birovlarning g'amidan shodlanuvchi bo'lma.

Nodondan yiroq yurishga intilgin.

To'g'ri yo'lni ochguchi ilmdir.

Mol-dunyoga o'ch, ochko'z odam do'stlikka arzimaydi.

Umr o'tkazishga zarur vosita maosh, vosita hosil bo'lmaguncha kishi xotiri osoyishta bo'lmaydi.

Kimki jamiyatdan foyda ko'rsayu lekin foyda yetkazmasa, u ishlamagan bo'ladi.

Odamlarning azizi uldurkim, nafsi xor etar.

Xislatlarning yomoni kibrdir.

Hech kimdan ta'ma qilmagan kishi ozoddir.

Men ul kishiga taajjub etarmanki, hayotdan so'z aytib, o'zi Ollohdan hayo qilmagan.

Johil bilan holva yegandan ko'ra, oqil bilan kaltaklashgan yaxshi.

O'zingga aloqasi bo'lмаган narsa haqida bosh qotirma.

Nodon do'stdan dono dushman afzal.

Aniq bilgilki, beamal ilm hech qachon foyda bermaydi.

Binobarin, bir kishi yuz ming masalani o‘qib-o‘rganib, boshqalarga o‘rgatsayu, o‘zi amal qilmasa, bundan ne naf?

Ey farzand, ogoh bo‘l, amalsiz ilm telbalikdan boshqa narsa emas.  
Va lekin ilmsiz amal ham naf keltirmagay.

Bo‘yningda birovning haqi qolmasin.

Odamlar hurmat-izzatni joyiga qo‘yib ta’zim bajo keltirishadi  
va bundan senda riyo paydo bo‘ladi.

Riyo, hasad, kibr, kin, adovat va boshqa illatlar  
yomon xulqlarning manbaidir.

Bir kun umring qolgan bo‘lsa ham, qalbni musaffo etib,  
nafsni poklashga xizmat etuvchi ilmlar bilan shug‘ullanib qolmoq zarur.

Yaxshi ahloqli kishi xalqni ham ranjitmas, o‘zi ham ranjimas.

Kimki nafsiga hokim bo‘lmasa, xor bo‘lur.

Dunyo va oxirat g‘arb va sharqqa o‘xshaydi.  
Ularning biriga qancha yaqinlashsang, ikkinchisidan shuncha  
uzoqlashasan.

Oz gunohni xush ko‘rgan kimsa ko‘piga tutilgay.

Munofiqlarning nishoni uldurki, dunyoga xirs bilan yopishgaylar, sadaqani  
riyo bilan bergaylar. Mo‘minning nishoni uldurki, neki bersa, haq uchun  
bergay, barcha ishlarini haq uchun qilgay.

O‘zingni yaxshi ko‘rishing o‘zingni halok qilishingdir.

Ilm bari haqiqat, haqiqat bari ilmdir.

Sodiq uldirki o‘ziga ziyon yetadigan joyda ham to‘g‘ri so‘zlagay.

Har kimning boyligi mol bilan bo‘lsa, hamisha kambag‘aldir.

Qurolingni ilmdan yasa.

Yaxshilar bilan do'stlash.

Sabrli bo'l, murodga yetasan.

Kam gapir, oz yeginu kam uxla.

Dono ko'ringan nodondan hazar qil.

Ajalni hech qachon esdan chiqarma.

Martabayu izzatni ilmdan izla.

Birovning minnatini ko'taru minnat qiluvchi bo'lma.

Dushmaning bilan inoqlashgan do'stdan qo'rq.

Eng noyob ne'mat-rostgo'ylik va qahramonlik,  
eng og'ir balo-munofiq do'stlar ekan.

Do'st og'zi burun o'pishsa dushmanla gumon,  
Tark et bu kabi munofiq ulfatni shu on.

Hali ohiri noma'lum ish haqida  
odamlarga oldindan so'zlash noloyiqdir.

Mag'rur bo'lib kezma umring guliga,  
Duchor bo'larsan bir kun xazon eliga,  
Yuz yil yashab, tushsang ajal ko'liga,  
Chapingdan o'ngingga boqqanga bo'lmas.

Odamzoddan chiqar odamlik isi,  
Muttahamning darhol chiqadi misi.

Odam yaxshisi olimdir,  
Amal etmasa, zolimdir.

Noshukurdan umid yo'q.

Qabixlik qilsa oshnang, darhol undan yuz o'gir.

Makkor do'st maqtaydi-yu,  
Orqadan fitna tuzar,  
U go'yo sut to'la ko'za, zahar bordir tagida.

Dono kamtarin bo'lar, ilmi bilan maqtanmas.

Nodon bilan do'stu oshno bo'lgandan  
Dengizda cho'kkon, o'tda yongan afzal.

Ilm boylikdan afzal. Zero, ilm seni asraydi, ammo boylikni sen qo'riqlaysan.

Donishmand ilmga to'ymaydi va to'yanini bilmaydi ham.

Uch narsadan uyalmaslik kerak: erkakning o'z mehmoniga xizmat qilmog'i; ota va ustoz ehtiromi uchun o'midan turmoqlik; oz bo'lsa-da haqni talab qilmoqlik.

So'zlaguvchining kimligiga emas, uning so'ziga boq.

Sendan uzoqlashmoqni istagan odamga mayl bildirmog'ing xorlikdir.

Dunyo ziynatlaridan nafshi tiymoq – aql mevasidir.

Amalsiz baland maqom va yuksak darajani istash – joxillikdir.

Qo'ldan ketmagunga qadar qadrsiz ikki xil ne'mat bor: yoshlik va tansihatlik.

Kimki seni senda yo'q sifatlar bilan maqtasa, shubhasiz, u seni senda yo'q sifatlar bilan erga uradi.

Kimki harom yo'llar bilan mol-dunyo to'plasa, uni harom yo'llarga sarf etadi.

Kimki isrofgarchilikdan mamnun ekan, qashshoqlikda xoru zor bo'ladi.

Kimki fitna olovini yoqsa, o'zi unga o'tin bo'ladi.

Kimki ilmnning intihosiga yetdim deb da'vo qilsa, mutloq nodonligini oshkor qiladi.

Sening yahshilik va ulug‘ ishlaringni unutadigan, yomonliklaringni xotirasida saqlaydigan kimsalar bilan do‘st bo‘lma.

Er gapi bilan emas, amaliy ishlari orqali sinaladi.  
Berma obro‘yingni qo‘ldin, ketsa, qaytib kelmagay.

Do‘st tutinma sen munofiq birla, yo‘ldosh aylama, aylagay do‘stlarni sarson bemuruvvat, beadab.

Ul xushomadgo‘y firibgardin hazar qil,  
Chunki ul tushsa gar boshinga ish,  
Yoqqay uyingni, o‘t qalab.

Bu dunyoda kishi aybin yoparmish davlatu sarvat,  
So‘zini to‘g‘ri deb tasdiq etarlar so‘zlasa kazzob.

Yaxshidir yoshlikdan o‘rgansa bolang ilmu adib,  
O‘ylakim, toshga bitilgan xat kabi o‘lmaydiul.

Orqada qolmoq ila maqsadga etgaymu kishi?  
Orqada qolmoq bisyor xavfu xatarlar keltirur.

Otang so‘zin aziz bil sen,  
Onang so‘zin mukarram tut,  
Ularning so‘zi hikmatdir,  
Qachon senga ziyon bo‘lgay?

Ilmi bo‘lsa, lekin aqli bo‘lmasa,  
Bu oyoqsiz bir etikdir, anglagil.

Murabbiy malakali bo‘lsa,  
O‘quvchi barkamol bo‘ladi.

Buyuk alloma Arastu tarbiya haqida shunday degan edi:  
«Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste’dodga, ilmga, mashqqa. Garchi

iste'dod insonga tabiatdan, ya'ni yaratgan tomonidan nasib etgan bo'lsada, ilm olish va mashq qilish hayotiy jarayondir. Bu jarayon esa bevosita madaniyat va ma'rifat asosida amalga oshiriladi».

Kimki o'z qadrini bilsa xor emas,  
Tangrim oni xalq aro xor aylamas.

Ahli solih ahli fosiqdan yiroq,  
Ahli oqillar munofiqdan yiroq.

Behunar har erga borsa xordur,  
Bexunarlardin xudo bezordir.

Beamal ilm istaganlar xordir,  
Ikki olam xalq aro murdordur.

Nosiho, and aytma nodon ko'rg'a,  
Sochmag'il dehqon urug'ni sho'rg'a.

Kimki nodong'a nasihatlar qilur,  
Kemani qum uzra surgandek bo'lur.  
Bilmag'ay nodon nasihat qadrini,  
Bilmag'ay ko'zsiz chirog'ini qadrini.

Aql bo'lsa odamiy inson bo'lur,  
Aql gar yo'q bo'lsa ul hayvon bo'lur.

Ruhi odam ilmdin quvvat olur,  
Ilmsizni ruhi bequvvat bo'lur.

Aytay, ey tolib, sanga chandon suhan,  
Ma'rifatsiz jismdir jonsiz badan.

Ey o'g'il, bo'l doimo dono talab,  
Qilgay ul jahlingni dono bartaraf.

Nodon amal uchun borini tikar,  
Oqil qadri uchun orini tikar.

Balki boylik bilan yuz yil уашарсан,  
Ilmu xikmat bilan mingdan osharsan.

Soatni orqaga surib bo‘lmaydi,  
Qalb agar qulf bo‘lsa kirib bo‘lmaydi.  
Sen oyning ortidan ovvora yurma,  
Qo‘ling etmas joyda bechora yurma.

Sevgi avval sel qilar seni,  
Keyin asta sil qilar seni.

Quvonch qariganda qayg‘u bo‘larmish,  
Qayg‘u qariganda odam o‘larmish.

Qadrni misqollab topasan, ayon  
Botmonlab yo‘qotish juda ham oson.

Oqil bilan o‘tgan har damping,  
Butun bo‘lgan asli bir kaming.

Neki yozsang qog‘oz qorayar,  
Yomon yozma, duyo torayar.

Umiding uzilmas ulug‘lar ichra,  
Insofu iymoni to‘liqlar ichra.

Shunchaki egilmak joiz emasdир,  
Har kimga egilsang odam demasdир.

Bir miriga bir-birin tiriklayin eydilar,  
Qo‘ldan ketgan molinga achinmagin deydilar.

G‘iybat boshingdagi buzuq havodir,  
Buda nafas olmoq jonga jazodir.

Amal qo‘lga oson kiribdi,  
Bil, davrangga nodon kiribdi.

Sinamoq kerakdir yaxshi-yomonni,

Achchiq-chuchukniyu qimmat-arzonni.

Kishi agar yo‘lda qazsa chuqur gox,  
O‘zini u goxda ko‘radi nogoh.

Hushyorlikni qo‘ldan boy bergen inson,  
Falokatga duchor bo‘ladi oson.

Fitna-yu bedodlik makkoring ishi.

Kimni xor etsa, u chiqmagay g‘amdan,  
Quyosh ham yuz burgay unday odamdan.

Avval o‘ylab olgil, to gapirguncha.

Yomonlik urug‘in sepma jahonda,  
Ziyonu zararin ko‘rursan jonda.

Tug‘ilgan har kimsa bir kun o‘lgaydir,  
Xohi shahriyor, xoh chokar bo‘lgaydir.

Doim odil bo‘lg‘il, yaxshilik qilg‘il,  
Kuninga yaxshilik yaraydir, bilg‘il.

Abadiy qolmassan foniy saroyda,  
Tahtu ganj g‘ururin qilmoq ne foyda.

Besh kunlik dunyoga hirs qo‘ymoq nechun,  
Orttirmoq uchunmi g‘am-anduh kuchin?

Tamadan parhez qil, tama-g‘am qoni.

Xasisga xasischa etaylik javob,  
Yaxshilarga yo‘ldosh bo‘lmoq ko‘p savob.

Aql podshoh bo‘lsa, til-paxlavondir.

Biz ham navbat bilan bir-bir o‘tarmiz,  
Nechun yomonlikka yuzni tutarmiz?

Agar inson bo‘lsang bahillikdan kech,  
Bilki, bahil bog‘i ko‘karmagay hech.

Dono chetga qochgay ko‘rinsa nodon.

Shukur etmagan kimsa bo‘lg‘usidir hor.

Tengdir er qarida gavhar ham, tosh ham,  
Uning manfaatin bilmasa odam.

Yahshi nom qoldirsang dunyoda, basdir,  
Bu toju bu belbog‘ abad emasdir.

Kimningki hudoyim bo‘lmas yo‘ldoshi,  
Horu zorlikdan hech chiqmagay boshi.

Yomonlik eshigin ochmoq- yomonlik.

Yomonlik ildizin mutloq quriting.

Qo‘shnilarga aslo bermangiz ozor,  
Ulug‘larni aylab, etmang badkirdor.

Kimki shukur etmas, bilingiz shuni,  
Yana faqirlikka etkazar uni.

Sof dilga yaxshilik qiling doimo,  
Cho‘ktirmang muhtojlar ko‘nglini aslo.

Bo‘lsa gar har kimsa beburd, napisand,  
Xavfu xatar ila bo‘lga0y boshi band.

Yuz o‘gir, har kimki qilsa yomonlik,  
Yomonlikdan kelmas elga omonlik.

Dunyoga hirs qo‘ygan er insof bilmas.

Kishini kuydirmang vaqt – bemahal,

Boshiga besabab keltirmang ajal.

Toza bo‘lsa kimning asl gavhari,  
Adolatdan o‘zga bo‘lmas so‘zlari.

Hunar manmanlikdan a’lodir ming bor,  
Manmanlik donolar ichra bo‘lur xor.

Oqillar so‘z qadrin tutgaylar baland.

Sotmas o‘zin ganjga aqli bor odam,  
O‘tgaydir jahondan yaxshi, yomon ham.

Yomon bo‘lmang yomonliq tufayli.

Kimda ilmu donish bo‘lsa mukammal,  
Har ne muammoni oson etur hal.

Obro‘ni oshirur ilm ila aql.

Har kimning boshida bir o‘lim bordir,  
Undan bosh tortmoqlik, biling bekordir.

Mastlikdan qo‘l yuving, qarigan chog‘i,  
Qarining mastligi – kasofat dog‘i.

Kimdaki, bilim bor, kimda aql bor,  
Ajaldan o‘zga tig‘ unga qilmas kor.

Ulug‘lik salohin berib gumrohga,  
Past, nodon ishidan botma gunohga.

Beboshni hech qo‘lga olib bo‘lmaydi,  
Gumrohni haq yo‘lga solib bo‘lmaydi.

Ne xush so‘zlar demish ul aqli raso:  
«Tagi pastga amal bermagil aslo»!  
Bunday ish oxiri bo‘lur ranju dard,  
Noshukur kishi hech bo‘limgay jo‘mard.

Umringni o‘tkazma egrilik aro.

- Qanday qilib aqlli bo‘lish mumkin?  
- Donolar bilan suhbatda.

- Eng yaqin do‘stkim?
  - Xotin.
  - Eng yaxshi boylik nima?
  - Bilim.
- Haqiqat bor joyda g‘alaba bor.
- Qanaqa kasal davosiz?
  - Ochko‘zlik.

Dono odam doim elni o‘ylaydi,  
Har bitta ko‘ngilu dilni o‘ylaydi.  
Zulm qilsa agar har bir odamga,  
O‘kirib keluvchi selni o‘ylaydi.

Elu yurt yashnashi rahbarga bog‘liq,  
Farovon hayoti samarga bog‘liq.  
Odil rahbar elga shamsu qamardir,  
Yorug‘lik shams ila qamarga bog‘liq.

O‘qigan odamlar dono bo‘ladi,  
So‘zida mukammal ma’no bo‘ladi.  
Uzoqni ko‘radi, aslo charchamas,  
Ilmdan kuch topar, barno bo‘ladi.

Uch toifa kishiga odamning rahmi keladi:  
- johilga qaram bo‘lgan donoga;  
- kuchsizga asir bo‘lgan kuchliga;  
- baxilga muhtoj bo‘lgan sahiyga.

Oqil kishi johil bilan, hushyor kishi mast bilan aslo tortishmaydi.

Aybsiz do‘st axtargan do‘stsiz qolar.

Ayriliq - o‘limdan qattiq.

Arpa, bug‘doy bir kunga yaraydi,  
Sodiq do‘sting o‘lguninggacha yaraydi.

Baliqning tirikligi suv bilan,  
Odamning tirikligi odam bilan.

Bemehr qarindoshdan,  
Mehrli bo‘lgan yot yaxshi.

Bir daraxtdan bog‘ bo‘lmas.

Gumon do‘stni do‘stdan ajratadi.

Dushman siringni o‘g‘irlaydi,  
Do‘st xatoingni to‘g‘rilaydi.

Do‘stga do‘st bo‘l,  
Dushmanga – dushman.

Do‘st do‘stni kulfatda sinar,  
Odam odamni mehnatda sinar.

O‘rganish oson, o‘rgatish qiyin.

O‘qiganning oshig‘i olchi.

O‘qigan o‘qdan oshar,  
O‘qimagan tutkidan toshar.

O‘qish- jafoli, keti – vafoli.

Qalamning ishini qilich qilolmas.

Hunar – zar, hunarsiz – xor.

Hunari yo‘q kishining

Mazasi yo‘q ishining.

Hunarli er xor bo‘lmas,  
Do‘st - dushmanga zor bo‘lmas.

Husniga emas, hunariga boq!

Mard bir so‘zlaydi,  
Nomard ming so‘zlaydi.

Mard – bir o‘lar,  
Nomard – yuz o‘lar.

Nolish bilan ish bitmas,  
Mard nomardga tiz cho‘kmas.

O‘z aybini bilgan – mard.

To‘g‘rining g‘oyasi ham to‘g‘ri.

Haqiqatdan ko‘z yumganlar – norasolardir.

Nohaqlikning kelajagi yo‘q, uni qachondir g‘ijimlab tashlaydi.

Qiyshiq yuklangan yuk manzilga etmaydi.

Haqiqat yo‘q erda imonlilar tutun orasida qoladilar.

Yashirilgan haqiqatni vaqt topadi.

Haqiqatni bilmaslik xato qilishga olib boradi.

Yoshlik bahorida kelajak urug‘larini ekib qol!

Yoshlikdan boshlab sha’ningni qo‘riqla!

Yoshlarning arzon yo‘ldan baxt qidirishi baxtsiz qiladi.

Yaxshi bola oilaning bog‘i, yomoni esa - dog‘i.

Odobli farzand ota-onaning umrini uzaytiradi.

Yaxshi farzand – oilani obod qiladi, yomoni – barbod qiladi.

Farzandlik burchini o‘tamagan bola bir umr hijolat ichida yuradi.

Yaxshi farzand ota-onsi nomini ko‘klarga ko‘taradi, yomoni esa erga uradi.

Bolaning kamoloti ota-onaning orzusidir.

Inson ota-onadan doim qarzdir.

Ona birinchi muallimdir.

Ota o‘nta ustozdan ustun.

Bola og‘ir yuk ko‘tarsa, onaning beli og‘riydi.

Otang borida yo‘lingni tani!

Bola o‘z ota-onasi bilan baxtli.

Ota-onaning o‘rnini hech kim bosa olmaydi.

Ota qattiq qo‘lligining oxiri - farog‘at.

Ota hukmi umrbod esda qoladi.

Ota-onsi g‘animat.

Ota-onaning mehrini qozonish farzandning baxtidir.

Odamga eng keragi – atrofdagilarning mehriyu o‘z Vatani.

Mehrsizlik – baxtsizlikdir.

Vafo – eng oliv fazilat.

Oilaning totuvligi vafoda.

Vafodorlarning xonadoni fayzli.

Xonadoniga vafodor kishi – elning ham ishonchli odamidir.

Vafodor – qadr-qimmatli odamdir.

Vafosizda hayo yo‘q.

Vatanga va xalqqa naf keltira olish baxtdir.

Vatan gadosi – kafan gadosi.

Vataning tinch – sen tinch.

Ona yurting – oltin beshiging.

Birlashgan yovni qaytarar.

Daryo suvini bahor toshirar,  
Odam qadrini mehnat oshirar.

Oiladagi sadoqat – baxt omili.

Asosiy baxt uy-joydagi osoyishtalikdir.

Uyda yaxshilik yashasa, yomonlik kira olmaydi.

Tengini topib turmush qurish baxtdir.

Ahilligi bo‘lmagan xonadonga baxt kelishga qo‘rqadi.

Turmush oilani, odobi esa jamiyatnikidir.

Oila jamiyatdan ajralsa vahshilashadi.

Andishali odam hech narsadan qo‘rqmaydi.

Vafo yo‘q erda andisha yashamaydi.

Yuzi qoralik yuvgan bilan ketmaydi.

Nomussiz hayotdan nomusli o‘lim yaxshi.

Yomon maqsad bilan yaxshilik qiluvchidan qoch!

Fikrsiz o‘zining uyida ham adashib yuradi.

Inson yolg‘iz tug‘iladi, yolg‘iz o‘ladi, ammo yolg‘iz yashay olmaydi.

Odamlarning rangi har xil bo‘lsada, qoni bir xildir.

Kattadanadolat, kichikdan itoat.

Hayotni tartibga solib turuvchiadolatdir.

Adolat bor joyda sadoqat bor.

Adolat uchun kurashda g‘olib chiqqan odam hammaning mehrini qozonadi.

Xiyonatni yanchuvchiadolat bolg‘asidir.

Adolat darz ketsa, kelishmovchiliklar boshlanadi.

Do‘sning achchiq so‘zi hayotning shirinligidir.

Do‘sni topish qiyin, yo‘qotish oson.

Qalbaki do‘s – ochiq dushmanidan yomon.

Ta’ma evaziga do‘s bo‘lish pastkashlikdir.

Jamiyat mulkiga xiyonat qiluvchi o‘z soyasidan ham qo‘rqib yuradi.

Xudbin – jamiyatning zararkunandasi.

Haqiqatgo‘y odamga muhit sof bo‘lishi kerak, qing‘ir muhitda esa u juda qiynaladi.

Adolat yo‘q erda qadr-qimmat ham yo‘q.

Kamolatlilar muhitni g‘alvirlab turadi.

Ma’naviy qahatchilik bo‘lgan erda – iqtisodiy farovonlik bo‘lmaydi.

Hayot pillapoyalari omonat bo‘lsa, balandga chiqib bo‘lmaydi.

Hayotda nodon odamlarga qaraganda donolar ko‘p aziyat chekadilar.

O‘tmishdan ko‘z yumgan inson hoziri va kelajagini ko‘rolmaydi.

Mashaqqatli g‘alaba shirin bo‘ladi.

Haqiqat qonundan qo‘rqmaydi.

Yashirilgan sirni vaqt ochadi.

Yolg‘onning puchligini vaqt ko‘rsatadi.

Zamondan o‘zib ketgan yoki orqada qolgan odam ko‘p aziyat chekadi.

Meva - faqat daraxtninggina hosili emas, vaqtning ham hosilidir.

O‘tmishga e’tibor bermagan kelajakni rejalay olmaydi.

O‘tmishni o‘rgangan kelajakni tez ko‘radi.

Vazifasini bajarmagan vaqtdan orqada qoluvchidir.

Vaqtni g‘animat bilganning – umri mazmunli.

Mazmunsiz yildan – ma’noli kun yaxshi.

Umrning mazmunini bilgan kishi hayotini qadrlaydi.

Salbiy ishlardan o‘zini tiymagan odam o‘z umrining lazzatlarini barbod qiladi.

Aqlli – qirqda to‘ladi, aqlsiz - o‘ttizdayoq so‘ladi.

Uzoq yashash emas, yaxshi yashash kerak.

Harbir inson hayotini yig‘lab boshlagan, iloho uni kulib tugatsin.

Sog‘lom odam keksayganini kech ko‘radi.

Sog‘lom odamning orzu-umidlari ham sog‘lom bo‘ladi.

Dangasalik tanballikka olib boradi.

Bekorchilik salomatlikni susaytiradi.

Kasallikdan tuzalish uchun ham iroda kerak.

Vijdon tozaligi salomatlikning quvvatidir.

Imonli odam egri ko‘chadan ham to‘g‘ri yuradi.

Dunyoni oqillar bilan mehnatsevarlar obod qilgan.

Ezgu hislatlari elga singan odam vafotidan so‘ng ham yashayveradi.

Bo‘ynidagi burchni bilmagan - beburddir.

Kelinning hayosi – boylik, kuyovning vafosi - xazina.

Kuyov va kelinning oqilligi xonadonga fayz qo‘ndiradi.

Yangi oila taqdirining roli kuyov va kelinning qo‘lida.

Kelin – malohatu, latofati bilan go‘zal.

Kelinchakning nazokati – bo‘ynidagi duridan qimmat.

Kelinning husni – yarim boylik, aqli esa – xazina.

Kelinga baxt yaratuvchi – sepi emas, odobidir.

Uyning sarishtaligi – kelinning didiga bog‘liq.

Keksaning so‘zi gavhar, uni qulog‘inga taqib ol!

Olim ilmini eksa, xalq hosilini teradi.

Bekaning mehnati - uy-joyning husnidir.

Olim – bilim dengizidan maqsad durini topgan odamdir.

Intizom – go‘zallikning bir bo‘lagi.

Iste’dod – havas emas.

Mahorat - tarbiya mahsuli.

Iste’dod zilol chashma, uning ko‘zini bir erda ko‘msalar, ikkinchi erdan otlib chiqaveradi.

Iste’dod jabr – jafolarni pisand qilmaydi.

Iste’dod mehnatsevarlikdan vujudga keladi.

Iste’dodga sharoit bo‘lmasa, u nobud bo‘ladi.

Iste’dod charchash bilmaydi.

Yaratilgan mo‘jizalar mahoratning mahsulidir.

Mahoratni mashq takomillaydi.

Mahoratli nutqqa hamma quloq soladi.

Obro‘ – yaxshining hamrohi.

Aql idishi chuqur bo‘lsa, obro‘ to‘kilmaydi.

Adolatli odam doimo hurmatda.

Obro‘ mehnatsevarni va sadoqatlini qidirib yuradi.

Obro‘ istovchi kasbini sevishi kerak.

Obro‘ kelganda – misqollab keladi, ketganda – botmonlab.

Do‘s – do‘sning obro‘yiga qo‘riqchi.

Jamiyatda hiyonat qilganning obro‘yi tez kunda asoga tayanib qoladi.

Ochko‘zlikka obro‘ begona.

Nafsi ni tiya olmagan obro‘sidan ayrıldı.

O‘rtog‘ingning nojo‘ya ishi sening obro‘yinga putur etkazadi.

O‘lchab kesganning pushaymoni yo‘q.

Sovuq ham mevali daraxtni tez uradi.

Tanqid kelasi kasalliklarning oldini oladi.

Aybini tan olgan – mard.

Ish xatoni kechirmaydi.

Yahshiga - taqlid, yomonga - tanqid.

Insonni faqat yutuqlar emas, kamchiligin bo‘yniga olish ham bezaydi.

Kim o‘tmishni unutsa, qilgan hatolarini yana takrorlaydi.

Ogohlantirishni sezmaslik to‘qnashuvga olib boradi.

Xato gunohning uyiga etaklab olib kiradi.

Sezilmay qolgan xato yopilib ketmaydi, uni kelajak ochadi.  
Tan olingan xatolar chiniqtiradi.

Aqlning ko‘zi bilan qaragan adashmaydi.

Me’yor bilan ishlatilgan ilon zahari ham dori.

Adashganlarning yo‘lini ziyoli topib beradi.

Ziyolilar ilm-fanning sarbonidirlar.

Muallim - jamiyat ko‘zgusi.

O‘qituvchi - talabaning ikkinchi ota-onasi.

O‘qituvchining muomalasi ipak, talabi toshdir.

Muallim boladagi e’tiqodni shakllantiruvchi shaxsdir.

Kelajak ko‘p jihatdan maorifga bog‘liq.

Maorif - jamiyatning bezagi.

Maorifchi - e’tiqodidan og‘ishmaydigan odam.

O‘rganuvchiga qaraganda o‘rgatuvchiga qiyin.

Muallim bilim bulog‘i.

Adabiyot tarbiyachi va muallimdir.

Muallim - ma’naviy nuqson siz odamdir.

Jamiyatning mazmuni maorifga bog‘liq.

Maorifsizlik - vahshiylilikdir.

O‘qituvchining muhitga ta’siri uning faoliyatiga bog‘liq.

Yaxshi o‘qituvchi talabasining qo‘lidan ushlab past- balandliklardan olib o‘tadi.

Fan cho‘qilariga intilgan talaba o‘z o‘qituvchisini albatta e’zozlaydi.

Muallimning umri xato tuzatishlar bilan o‘tadi, shuning uchun ham u xato qilmasligi kerak.

O‘qituvchining mehri - har qanday qaxrdan ustun.

O‘qituvchining mehri isitadi, qahri junjitadi.

Muallimning bilimdan ham tadbiri ko‘p.

Yaxshi ustoz nomarddan ham mard yasaydi.

Tarbiyachilikka iste’dod, mehnatsevarlik va bilim kerak.

Yaxshi o‘qituvchi yomonlik bilan aslo chiqisha olmaydi.

Millatni millat qiladigan o‘z maorifidir.

Muallifning ijodiy asari farzandidan shirin.

Yangi chiqqan kitob aqllar elagida elanadi.

Kitobdan uzoqda yashagan kishi ko‘pgina ma’naviyat mevasidan mahrum bo‘lib qoladi.

Yumuq ko‘z uchun kitob arzon.

Birgina kitobning oftobi olamga tatiydi.

Qalam - qalb kitobi.

Qalam mash’la bo‘la oladi.

Qalam qilichni taslim qila oladi.

Qalam shunday qudratlari kuchki, u haq haqida yozgan bo‘lsa, uni hech kim o‘chira olmaydi.

Yumshoq qalam metinlarni yora oladi.

Qog‘oz bilan qalam - hayot taraqqiyotining omili.

Olimning qalami - qilichlardan o‘tkir.

Yaxshilikning qog‘ozi - oq, yomonlikniki - qora.

Munofiqning qalami tutab tamom bo‘ladi.

Tarix kelajakning asosi.

Tarix - to‘g‘ri xulosa chiqaradigan qozidir.

O‘tmish - kelajakning ustozи.

O‘tmishning hisobi - kelajakning kitobi.

Kelajak - o‘tmishdan o‘rganadi.

O‘tmishga tayanmagan kelajak yo‘q.

O‘tmishga qaramasdan kelajak yasab bo‘lmaydi.

Jamiyatga baxt keltirish uchun aziyat chekkanlarni tarix unutmeydi.

Insoniyatning baxti va saodati uchun kurashgan odamlarning nomi abadiy yashaydi.

Zamonlarni tarixning g‘alviri albatta elaydi.

G‘alaba - adolatlinikidir.

Ota-bobolarni xotirlab turish - muqaddas ish.

Insoniyatga xizmat qilganlarning nomi kelajak asrlarda ham kezib yuradi.

Vatan uchun qurbon bo‘lganlarning yodi muqaddas.

Urush qurbonining xotirasi bulutlar orasida yaltirab turgan yulduzga o‘xshaydi.

Xotira - marxumga nisbatan ehtiromdir.

Xotira - insonning pok qalbidagi buyuk hislardan biri.

Marxumni eslash - odamiylik.

Shahid bo‘lgan bahodir - abadiy navqiron.

Dunyoda abadiy yashatadigan o‘lim - el va xalq uchun jon fido qilib o‘lish.

Keksa odam ko‘chat eksa o‘z nomini ekadi.

Ezgulikka xizmat qilgan kishi - abadiy yashaydi.

Sokingina o‘tgan tiriklik izlarini tez kunda hayot shamoli supurib tashlaydi.

Yodgorlik-xotira haykali.

Inson-o‘z ota-bobolarini aslo unuta olmaydi.

Ota-onani unutish hayvonlikdir.

Yaxshi xotira doimo hurmatli.

Marhum ekib ketgan daraxt ham muqaddas.

Marxumlarni hurmat qilgan odam tiriklar qadriga ko‘proq etadi.

Noma’lum yo‘qolgan askar bahorda qaytib kela olmagan turnaga o‘xshaydi.

Uxlab yotgan o‘tmishni xotira uyg‘otadi.

Odamning sha’ni - baxtidan qimmat.

Aql - odamning qanoti.

Aql yumuq ko‘z bilan ham ko‘radi.

Odam ming aqlli bo‘lsa ham, o‘z aqli o‘ziga etmaydi.

O‘z xatosini sezish bilimdonlikdir.

Butun dunyoni bilsa bo‘ladi, ammo oldimizdagi o‘rtoqni bilish qiyin.

Xasta ma’naviyatni aql-zakovat davolaydi.

Xurofotning dorisi - ilmdir.

Har bir kishi dunyoni bilimga yarasha ko‘radi.

Ihtiro-bilim hosili.

Xayotning ma’nosi - kamolga erishib, hosil berishdir.

Kamolot diqqat bilan o‘qish va uqishdan vujudga keladi.

Odam o‘z ishini ardoqlasa, ishi uni e’zozlayli.

Ish haqidagi bilimni bilmasdan turib, ishni yaxshi bajarib bo‘lmaydi.

O‘z kasbini sevgan odamning- tongi ravshandir.

Muhabbatning bahosi vafo bilan o‘lchanadi.

Halollik - qalbga nur, yurakka oromdir.

Halol odam ta’qibdan qo‘rqmaydi.

To‘g‘ri odamning tavba qilishga kuni qolmaydi.

Halollikning gashtini surgan odam jinoyatdan jirkanadi.

Vaqtga oqibatli bo‘lgan kishi - orqada qolmaydi.

G‘oya va e’tiqodning sofligi ma’naviy sog‘lomlikdir.

Odamlarni imonli qilmasdan turib, mamlakatni obod qilib bo‘lmaydi.

Ma’naviy boylik – qatalab yig‘iladi.

Ma’naviy boylikni hech kim tortib ololmaydi.

Nohaqlik – jamiyat badanidagi yara.

O‘tib ketayotgan yoshlikdan hech narsa olib qololmay, uning orqasidan quvish bema’nilikdir.

Jamiyatning qudrati yoshlarga bog‘liq.

Yigitning odobi – otasiga quvvat.

Qizning sarishtaligi – onasining halovati.

Yoshlarning odobi elga manzur bo‘lsa, ota-onasi yayrab yashaydi.

Odamning taqdiri – muhitga bog‘liq.

Pok va adolatli muhit – insonga qanot.

Yaxshi muhitning qishi ham yozdek.

Insonning yomoni bo‘lmaydi, yomonlarni esa muhit yaratadi.

Tejalgan vaqt-qo‘sishimcha umrdir.

Odamning ma’naviy darajasi tili va qiyofasidan ko‘rinib turadi.

Hayosizlik ma’naviy o‘pirilishdir.

Yaxshilik chiroq yoqib yuradi, yomonlik - o‘chirib.

Hech kim tasdiqlamaydigan gap - beburdники.

O‘qituvchining dehqonchiligi o‘quvchilarda unadi.

O‘qituvchi faqat ilmini emas, foaliyatini ham o‘rgatadi.

Ustozning sifati shogirdga yuqadi.

Mard shunday kishiki, gapirmasdan turib qilmoqchi bo‘lgan ishini ado qiladi. Nomard kishi gapirib turib ham ado qilmaydi.

O‘qituvchilik kasbining asosiy mezonlari – fidoyilik, mehnatsevarlik, sabr-bardosh, qat’iyat va izlanuvchanlik bo‘lsa, o‘quvchi qalbiga yo‘l topa olish, mehrini, qalb qo‘rini shogirdi muvaffaqiyati uchun baxshida etish tom ma’noda ustozlik maqomini egallashdir.

Rostgo‘ylik eng ulug‘ fazilatdir.

Kishining nomusi bamisoli oppoq sut, ozgina gard uni loyqatadi.

Ota-onan g‘azabi kuchli.

Sabr qilib shoshmagan kishi orzusiga etadi.

Xafalik kishini bemorlik to‘shagiga yotqizadi.

Mevasiz – tinch, mevali shoxlar tomon toshlar otilar.

Keyingi pushaymon - o‘zinga dushman.

Salomning qadri bo‘lmasa, o‘tirgan tik turgan bilan ham salomlashaveradi.

O‘tganni qaytarib bo‘lmas, o‘lganni tiriltirib.

Dushman qancha kuchsiz bo‘lsa, g‘azabi shuncha kuchli bo‘ladi.

Dushmaningga ham yaxshilik qil.

Dushman aslo do'st bo'lmas.

Va'daga vafosizlik qilish eng yaramas ishdir.

Eng yaxshi xulqli va eng zo'r ilmli kishi serxavotir va ehtiyotkor bo'ladi.

Ilm – o'rganishdan, fikr – tajriba va sinovdan, anglash – tafakkurdan iborat.

Sirni fosh qiluvchilar oldida sir aytishdan saqlanish zarur.

Agar bir xususda g'azablansang, o'zingni bos. Agar biror baxtsizlikka yo'liqsang, sabr qil. Agar so'zlasang chin so'zla. Agar va'da qilsang, uni bajar. Agar birovlni so'roq qilsang, adolat bilan ish tut. Dushmaningga ham yaxshilik qil, yomonlikdan o'zingni tiy.

Taqdirda bo'lgan ish uchun achinish ortiqcha.

Ta'na qilsang birovga, so'ng o'zingga qaytadi.  
Bir kun kelib o'zingga aytgan so'zing qaytadi.

Odam ko'pincha nafsu havoga berilib, haqiqatdan uzoqlashadi.

Aqli bolalar ota-onalarini hurmat qilib, kuchlari etgancha ular xizmatida bo'ladilar. Yomon so'z aytishdan, achchiqlanib qarashdan o'zlarini saqlaydilar. Ota-onalarining izzat-hurmat qilishga, ularning duolarini olishga harakat qiling. Har bir bola ota-onasi qilgan nasihatlariga har vaqt amal qilishi kerak. Ota-onasiga ozor berib, ularning dillarini og'ritadigan bola baxtli bo'lmaydi.

Yoshlikda nima eksang, qariganingda shuni o'rasan.

Keksalarni hurmat qil, ustidan kulma, bir kuni vaqt kelib o'zing ham shunday qartayasan.

Ota-onaga muhabbat barcha yaxshi fazilatlarning asosi.

Temir qal’ani yoshlar qilich ishlatib yiqlitsalar, qariyalar fikr bilan ag‘daradilar.

Farzand ota-onas uchun jondir. Bordi-yu u noqobil bo‘lsa, ozori jondir.

Qalbi pok ota – pok avlod asoschisidir.

Otadagi fazilat uning farzandini elga mashhur eta olmaydi, boladagi fazilat esa otaga shuxrat keltiradi.

O‘z qadrini bilmagan odamdan yaxshilik umid qilma.

Aqlsiz do‘st aqlli dushmanidan yomonroqdir.

Haqiqiy do‘st – eng bo‘yuk boylik.

Odamlar bilan shunday yashaginki, do‘stlaring dushman bo‘lmisin, dushmanlaring do‘stga aylansin.

So‘rab - surishtirmay har qanday odambilan do‘stlashgan kishining o‘zi nodon.

Zaif, qo‘rkoq, aldamchi do‘stdan dushman afzal.

Ikki dushman butun bir er yuziga sig‘maydi, ammo ikki do‘st bir qarich erga ham sig‘a oladi.

Yangi do‘st topganingda eskilarini unutma.

Sening ranj, alamingni barobar tortadigan, shodligingga shodlanadigan do‘stni izlasang, bunday do‘st noyobdir. Senga o‘zini do‘st qilib ko‘rsatadigan tasodifiy do‘stlar esa juda ko‘p.

Siringni saqlagil, har kimga zinhor qilmagil ravshan, ko‘zing yog‘in edirsang do‘st, ammo bermasang – dushman.

Haqiqiy do‘stlik xasadni bilmaydi.

Do'stlikning birinchi sharti - ishonch.

Urish - botirni, johillik - dononi,  
Yo'qchilik - do'stlikni sinaydi.

Aqli odam hamma narsadan judo bo'lsa ham do'stdan voz kechmaydi.

Inson qo'lga kiritgan o'ljalaridan eng hayrlisi samimiy do'stlikdir.

Senga yahshilikni ravo ko'rib shirin hayollaringdan uyg'otishga majbur etgan va xatto bunda biroz qattiq qo'l bo'lgan va qo'pollik qilgan do'stingdan hafa bo'lma.

Hamma yoring erurlar ne'matingda,  
Hamma xodim erurlar davlatingga,  
Agar davlat ketar, sendan qocharlar,  
Ziyonlar eshigin senga ocharlar.

Do'st kishini bir yilda topish oson emas,  
Ammo uni bir lahzada yo'qotib qo'yish mumkin.

Samimiy, pok qalbli, vijdonli va haqgo'y bo'l.

Halollik har qanday martabani bezaydi.  
Halol odam uchun eng og'ir haqorat uni nohalollikda ayplashdir.

Halol odamni ta'qib etish mumkin, lekin uni badnom qilib bo'lmaydi.

Halol odam birovning haqiga xiyonat qilmaydi.

Shayx Sa'diy aytadi:  
To'g'ri yo'lida yurgan odam nomusli, matonatli, bergen va'dasida qattiq to'rvuchi bo'ladi, hech kimni aldamaydi, to'g'rilikdan ajralmaydi, to'g'rilikning eng ulug' fazilat ekanini biladi.

Dunyoda halol odamdan buyukroq zot yo'q.

Bir umr bahtli bo'lishni istasang, halol odam bo'l.

Hamma odamlar aslida bir xil, dunyoga kelishlari ham bir xil. Faqat tabiatan halol odamninggina nomi baland.

Uzoq sharmandali umrdan ko‘ra, qisqa halol umrni hamisha avzal ko‘r.

Ey farzand, agar dunyoda doimo taraqqiy qilay desang, halol va sofdil bo‘l.

Umrni faqat mol uchun sarflovchi bo‘lma.

Insonlardagi ajoyib xulqlardan biri to‘g‘rilikdir. To‘g‘rilik oadamdagи hamma ishlarning tartib va bir maromda ketishini ta‘minlaydi.

Bizning halolligimiz o‘zimiz va o‘zgalarga nisbatan hamisha qattiq talabchanligimizdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Nafratlana bilish har bir halol odamning eng muhim quroli.

Agar odam halollikdan yuz o‘girsa, shu qadar behisob, yaramas illatlarga berilib ketadiki, oqibat natijada hayotning nopol yo‘llaridan yurishga odatlanib qoladi.

To‘g‘rilik odamni balodan qutqaradi.

To‘g‘rilik – va’daga vafo, so‘zda turishlikda aks etadi.

Yolg‘on odamni sharmisor qiladi.

Va’dalarning ofati kechiktirishdir.

To‘g‘ri so‘zlab, to‘g‘ri ishlab vafot etish, yolg‘onchi bo‘lib uzoq yashagandan ko‘ra xayrlidir.

To‘g‘ri va halol kishi hammaning ishonchini qozonadi.

O‘n hislatni qo‘ldan bermaslik lozim:

To‘g‘rilik, halollik, insof, muloyimlik, qariyalarga hurmat, kichiklarga izzat, qanoatli bo‘lish, vafodorlik, iffat vaadolat.

To‘rt narsa hamma uchun kerak:

Salomatlik, go‘zal xulq, rostgo‘ylik va halol mehnat.

Yusuf xos Hojib aytadi:

To‘g‘ri so‘z ko‘ngilga achchiq tegadi, hazil qila olsang, uning manfaati maza beradi. To‘g‘rilik maqsadga etkazadi. To‘g‘ri kishi qaerda bo‘lsa ham kunlari baxtiyorlik bilan kechadi, yorug‘ kunlar qorong‘ulashmaydi. Xalqqa manfaat etkazgan odam chin odam hisoblanadi. Uyatsiz kishi kishilarning tubani bo‘lib, uning tili to‘g‘ri so‘zni so‘zlamaydi. Kishilarning sarasi sadoqatli kishidir. Odam farosatli bo‘lsa unutmeydigan, o‘ylab ish yuritadigan bo‘ladi.

To‘g‘rilik, rostgo‘ylik odamni sira uyatgaqoldirmaydi.

Ahmoqlik bo‘ladi yaxshilik kutmoq aqli yo‘q, badnamo, devonalardan.

Sizga nasihat qiluvchilar do‘stlaringizdir, aksincha, yomon ishlarni o‘rgatuvchilar dushmanlaringizdir.

Kimki yaxshilik yo‘lida urinsa-yu, biroq birorta yodgorlik qoldirmasa, u yaxshi degan nom ololmaydi.

Yaxshilik qilgancha yomonlik qilishdan ko‘ra razilroq pastkashlik yo‘q.

Yaxshi kishi shundayki, u doimo o‘lim oldinda turganini o‘ylab tezroq xayrli ishlar qilib qoldirishga urinadi.

Odamlar ikki narsa bilan taqdirlanadilar: yaxshilik qilgan – yaxshilik bilan, yomonlik qilgan – yomonlik bilan.

Qaltis hazil bilan kerilib bo‘lmas,  
Maqtov maqomiga berilib bo‘lmas.  
Tirigida o‘lib ko‘rmagan odam,  
O‘lsa izsiz ketar, tirilib bo‘lmas.

Qordan qadr so‘raganni ko‘rdim men,  
Eldan nazr so‘raganni ko‘rdim men.  
Kunim agar, qolgan bo‘lsa shularga,  
Dunyosidan qo‘lim yuvib, ketdim men.

Keksalik o'zi dard, azaldan bor gap,  
Ajabki, bu dardga berib bo'lmas chap.  
Xudoyim xushlasa, el ardoqlasa  
Ulug' yoshlarda ham topgaysan sharaf.

Odam yaralibdi ko'zi to'ymasmish,  
Ko'zi och odamning o'zi to'ymasmish.  
Iyomon egalari bo'lsang shu bois,  
Nafsi ni jilovdan sira qo'ymasmish.

Tilab borsang boshingga, malomatlar yog'ilgay.  
Chin do'stdan ham bir g'alat, alomatlar yog'ilgay.  
O'zingda yo'q olamda, yo'q degani rost ekan.  
Haqdan so'ra yaxshisi, karomatlar yog'ilgay.

Sal pastroq tush, san-sanlamagin,  
Darrov to'rdan joy tanlamagin.  
Yo'q mehmonni qoshingga chorlab,  
Yo'q obro'ni nishonlamagin.

Shunchaki yig'lamoq ayolga odat,  
Shunchaki yig'lamoq bermas saodat.  
Shunchaki yig'lagan erkak zotiga,  
Hatto shaytonlar ham qilolmas toqat.

Ulug'lik tilabsan, Alloh yor bo'lsin,  
Har neki so'rabsan, bari bor bo'lsin.  
Vatanni sotsangu elga tosh otsang,  
Har ikki dunyoing abad hor bo'lar.

Do'st izlab do'st topdim deganni ko'rdim,  
Do'stdan nogoh pand eganni ko'rdim.

Va'daga vafo vijdoning yaxshi,  
So'z bersang so'zingda turganining yaxshi.  
Insonsan, o'zingda turganining yaxshi.

Dardga chora izlaganga chora bordir,  
Nafsga pora izlaganga pora bordir.

Chora bilan bale pora orasinda,  
Odam otliq bitta yuzi qora bordir.

Har qancha dono bo‘lma, xalqdan ko‘p bilmaysan.

Yaxshilikning oldga, yomonlikning ortga burilgani yaxshi.  
Yomon xulq go‘zal husndan bezdiradi.

Samarasiz mehnat hafsalani pir qiladi.

Tili uzunning umri qisqa.

Agar nodon bo‘lmasa, men donoman dermidi?

Insonning kimligi boshiga ish tushganda bilinadi.

Odamlar bilan teppa-teng yurish kerak:  
Oldinga o‘tsang hasad qilishadi, orqada qolsang mazah.

Kim qochmasa mehnatdan, o‘sha loyiq rohatga.

Ko‘rganingdan gapir, eshitganingdan emas.

Bir kunda qadrdon qilib qo‘ygan manfaat bir kunda begona ham qilib  
qo‘yadi.

Nohaqning ovozi baland chiqadi.

O‘z o‘rnida qil arqondan kuchli.

Olgan unutsa ham, bergen unutmaydi.

Hayot imtihonidan o‘tolmagan sinadi.

Sabrning o‘zi etarli emas- harakat ham qilish kerak.

Birovning qadriga etish uchun avvalo uning qadrini bilish kerak.

Sabri yo‘qning baxti yo‘q.

Birovga qilganing o‘zingga qaytadi.

Tirik odam tashvishsiz bo‘lmas.

Tekin narsaning xaridori ko‘p bo‘ladi.

Baxtini yo‘qotgan, axtarib topolmaydi.

Minnatli yaxshilik yomonlikdan battar.

Dunyoda nodondan kuchli dushman yo‘q.

Birovdan emas fe’lingdan noli.

Davlat osmondan ham tushishi mumkin,  
Lekin shuhratga mehnat bilan erishiladi.

Bu dunyoda bir kun kelib fosh bo‘lmagan sir yo‘q.

Insonning eng ezgu orzusi hech qachon amalgaga oshmagan.

Birovdan ayb izlashning o‘zi ayb.

Yomon kayfiyat bilan yaxshi ish qilib bo‘lmaydi.

Uzun til umr egovi.

Ko‘nglingga kelganini emas, qo‘lingdan kelganini qil.

Birni birov bersa, mingni mehnat beradi.

Noshukurlik odamni emiradi.

Donoga - ishora, nodonga - kaltak.

Odam bolasi o‘zini o‘zi majburlashi kerak, birov majburlagani behuda.

Oqillikning chegarasi bor, lekin axmoqlik chegara bilmaydi.

Kimga tili pand beradi, kimga fe'li.

G‘ami qo‘pga emas, g‘ami yo‘qqa achining.

Birovdan emas, o‘zingdan gina qil.

Faqat nodongina hamma narsani bilaman deb o‘ylaydi.

Uyqu - bekorchining do‘sti.

O‘zingni ming tiyib yashama, kimliging baribir oshkor bo‘ladi.

Yahshi odamlarning do‘stlari ham yaxshi odamlar bo‘lishadi.

Odamlarning gap - so‘zidan qo‘rqsang, hech narsa qilolmaysan.

Fikring pishib etilmaguncha yozishga o‘tirma.

Fikrlashdan to‘xtagan yashashdan to‘xtaydi.

Nodonni fikridan qaytarib bo‘lmaydi.

O‘zing ishonmagan narsaga o‘zgani ishontirolmaysan.

Husn - ko‘z quvonchi, aql - ko‘ngil ozig‘i.

Tuyg‘ular ortidan ergashish aqlning zaifligidan.

Zavq bilan qilingan ish barakali bo‘ladi.

Me’yorni unutganning boshi xam.

Ko‘ngil istagi yo‘lida aql g‘ov bo‘ladi.

To‘g‘ri so‘zidan bilinar,  
O‘g‘ri ko‘zidan.

Boshqalarga pand bergen o‘zi ham pand emay qolmaydi.

Ko‘p gapirib hech kim obro‘ olmagan.

Zamondan orqada qolgan odam zamonni ayblab yashaydi.

Har kim o‘z ishini qilsa, olam ishlari jo - bajo bo‘ladi.

Odam bolasi o‘zini aldab yashaydiyu, boshqalardan haqiqat talab qiladi.

Odam o‘zini kimga teng qilishni ham bilishi kerak.

Fikr qancha qisqa bo‘lsa, shuncha ta’sirli bo‘ladi.

Birovni aldash avvalo o‘zingni aldashdir.

Kimga so‘z ham ta’sir qiladi,  
Kimga tig‘ ham ta’sir qilmaydi.

O‘z imkoniyatini hisobga olmagan sharmanda bo‘ladi.

Aql maqsadga etkazadi, ko‘ngil adashtiradi.

O‘g‘rilikni yashirgan o‘g‘rilikka sherik hisoblanadi.

Nima xoxlashini bilmaydigan kishi chinakam badbaxtdir.  
Qo‘lidan ish keladigan kishi ishsiz qolmaydi.

O‘zingga ishonsang, qasamga hojat yo‘q.

Isrofgar boy bo‘lmas.

O‘qimay qo‘ygan fikrlashdan ham to‘xtaydi.

Har kim o‘z ishini qilsa, olamda muammo qolmas edi.

Qo‘lidan ish kelmaydiganlar dushmanlik yo‘liga o‘tib olishadi.

Me’yoridan oshgan o‘z boshini o‘zi eydi.

Tanish-bilish oshda, do'st ishda bilinadi.

Birovning arzimagan xatosi boshqaga juda qimmatga tushishi mumkin.

Har bir so'zing, har bir harakating bilan birovnlarning taqdiriga mas'ul ekanligingni hech qachon unutma.

Yomon bilan talashib obro' topmaysan.

Aqli kishi birovning vaqtini hurmat qiladi.

Birovning oldida beburd bo'lishdan yomoni yo'q.

Son ketidan quvgan sifatdan yutqazadi.

Samarasiz mehnat oxir-oqibat kishini bezdiradi.

Yomonga yon bersang, boshingga chiqadi.

Hasad - inson vujudiga tushgan qurt.

Birovning kasriga qolishdan ham alamli narsa yo'q.

Odamni aslida asab emiradi.

So'z qancha chiroyli bo'lsa, shuncha yolg'on bo'ladi.

Hasad o'ti avvalo hasadgo'yning o'zini kuydiradi.

Birovga yuk bo'lib yashaganning joni omonat.

Ishonchsizlik oraga sovuqchilik soladi.

Son sifatni belgilamaydi.

Yaxshi yomon bo'lishi mumkin, lekin yomon hech qachon yaxshi bo'lmaydi.

Qadrsiz mehnat qaritadi.

Nafs kishining qo‘l-oyog‘ini bog‘lab beradi.

Qanoatsizlik odamni ado qiladi.

Yaxshi duo olib yashaydi, yomon qarg‘ish.

Tenging yo‘q joyga borma.

Vaqt o‘g‘risi - naqd o‘g‘risi.

Oqil vaqtini qizg‘anadi, johil naqdini.

Donolikning muayyan chegarasi bor, nodonlik esa chegara bilmaydi.

Kimning ustidan kulsang, o‘shaning holiga tushasan.

Qo‘rroq hammadan xadiksiraydi.

Qo‘rroqning halovati bo‘lmaydi.

Eru xotinning dunyoqarashida tafovut bo‘lsa, bu oila hech qachon tinch bo‘lmaydi.

Yosh o‘tavergan sari hayot go‘zal va shirin tuyulaveradi.

Bir narsaga erishish uchun metin va tolmas iroda kerak.

Aqli kishi ko‘chada ham vaqtini buhuda o‘tkazmaydi.

Xudbin hamma narsaning o‘zi xohlaganday bo‘lishini istaydi.

Xotinning yoshlikda husni, o‘rtta yoshda xulqi, qariganda aqli kerak bo‘ladi.

Aqlsizning o‘zining aqlsizligiga ham aqli etmaydi.

Aqli deb atashlarini hamma xohlaydi-yu, lekin hamma ham aqli bo‘lishga intilmaydi.

Do'stni ko'chadan izlamaydilar.

Hamma ham mehnati munosib qadrlanishini istaydi.

Mehnatning qadrlanmasligi hafsalani pir qiladi.

Fe'li yomon – topmas omon.

Axmoq aql o'rgatadi.

Xafa qilish oson, xursand qilish qiyin.

O'ziga kuchi etmagan boshqaga osiladi.

Qasam ichish - ojizlik belgisi.

Qo'lidan kelmagan ish bilan o'zini ovora qilib yurish – axmoqlik belgisi.

G'iybatdan tuxmat tug'iladi.

Ojiz shikoyat qiladi,  
Kuchli harakat.

Maqtovni keyingi ishlariga rag'bat deb bilgan yutadi.

Oilangga vaqt ajratmasang, oilangda begonaga o'xshab qolasan.

Kim ming bir azob bilan o'ziga yo'l ochadi,  
Kim ochib berilgan tayyor yo'lidan qochadi.

Inson «Men nima uchun yashayapman», degan savolni vaqtি-vaqtি bilan o'ziga berib turish kerak.

Fikrlab turmasang, zanglab qolasan.

Boshqalardan norozi odamlardan aslida boshqalar ham rozi emas.

Umr yashash uchun berilgan, nolish uchun emas.

Kelajakning mavhumligi kishini asabiy qilib qo‘yadi.

Yo‘lini bilgan qand eydi,  
Yo‘lini bilmagan pand eydi.

Urug‘ing bilan emas, hosiling bilan maqtan.

Gapi ko‘pning ishi kam bo‘ladi.

Qanoatsizlik kishini xor qiladi.

Tushkunlik davosi – mehnat.

O‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lmagan kishi hammaning qo‘lida o‘yinchoq bo‘ladi.

Havas yashnatadi, hasad qaqshatadi.

Aql pul topishda kerak bo‘lmasa ham sarflashda kerak bo‘ladi.

O‘zi intilmaydigan boshqaga ham yo‘l bermaydi.

O‘zi ishlamagan boshqalarni gap qiladi.

Bekorchining ishi boshqalarga halaqit berish.

Izzat talab o‘z obro‘sini o‘zi to‘kadi.

Pastkashning hurmati bo‘lmaydi.

Tamagir ustozdan shogirdlari qochadi.

Farosatsiz kishida andisha bo‘lmaydi.

Xato qilganiningni boshing devorga tekkanida anglaysan.

O‘zing harakat kilmay taqdirdan madad kutma.

Ulug‘larning etagidan tutgan bir narsaga erishmay qolmaydi.

Dono hech qachon men hamma narsani bilaman demaydi.

Donolik da’vosini nodonga chiqargan.

Farzandlarning kamoli – Ota-onam jamoli.

O‘zingni majburlamasang, hech narsaga erishmaysan.

Yomon yo‘l bilan yaxshi hayotga erishib bo‘lmaydi.

Birovning rizqiga ko‘z olaytirishdan yomoni yo‘q.  
Birovning vaqt bilan hisoblashmagan nodon.

Axmoqning aqli bilan ish qilgan kulgiga qoladi.

Man etilgan narsaga etishib, hech kim naf ko‘rmagan.

So‘z va ish birligi kamdan-kam kishilarga nasib etadi.

Indamay ishini qilgan yutadi.

Aqlli odam birovning siri bilan qiziqmaydi.

Keragidan ortiq narsani bilish hech kimga foyda keltirmaydi.

Birovning sirini bilishga o‘chlik yaxshi xususiyat emas.

Chala qolgan ish hamisha tashvish.

O‘zi hech narsa bilmagan bilganning nog‘orasiga o‘ynaydi.

Birgina xato hayotingni izdan chiqarib yuborishi mumkin.

Kishining nodonliginio‘zini qanchalik dono hisoblashdan ham bilsa bo‘ladi.

Qilgan ishing qoladi – shuhratingning dovrug‘i o‘chib ketadi.

Do‘ppingni olib chuqur mulohaza qilib ko‘rsang, ayb taqdirda emas, o‘zingdaligi ma’lum bo‘ladi.

Yashash baxti hammaga ham nasib etmaydi, ko‘pchilik shunchaki kun ko‘radi.

Bekorchilik odamni emiradi.

Behuda ish – o‘zingga tashvish.

Yaxshiga hamma zor, yamondan bezor.

Odamlar faqat oqibatni ko‘rishadi, sabab bilan ishlari yo‘q.

Xudbindan insof kutma.

Nafsi g‘olibning o‘zi mag‘lub.

Yomonlik ko‘ngilda qoladi.

Ishonchsizlik ko‘ngilni sovutadi.

Hamma bu dunyoda o‘z haqiqatini himoya qilib yashaydi.

Har kim o‘z qadrini bilgani yaxshi,  
O‘shanga ko‘ra ish qilgani yaxshi.

O‘zini cheklay olmagan kishi ko‘p narsadan mahrum bo‘ladi.

Sog‘lig‘ing haqida sog‘lig‘ingda qayg‘ur, keyin kech bo‘ladi.

Qanday sukut saqlashni ham bilish kerak.

O‘ziga ishonchi yo‘qning hayotda quvonchi yo‘q.

Chin muhabbat kechirimli bo‘ladi,  
Kechirmsa u muhabbat emas.

Axmoqning ichida sir yotmaydi.

Bir ishni qilib pushaymon bo‘lgandan, qilmay armon qilgan afzal.

Ishonchini yo‘qotgan – quvonchni yo‘qotgan.

Birovdan ta’ma qilish muttahamlik.

Eng og‘ir yuk – minnat yuki.

Hayot qonuniyati shu: kimga yaqinlashib, kimdan uzoqlashib boraveradi.

Husn to‘yda, aql kunda kerak.

Ko‘ngilchanliging o‘zinga ziyanu boshqalarga foyda.

Bir axmoqlik qilib, bir umr azobda qolasan.

Bu dunyo kimning inson, kimning inson emasligini namoyon qiladigan sinov maydoni.

Bosiqlik ham donolik alomati.

Hayotdan emas, o‘zingdan norozi bo‘l.

Ko‘ngli qora kimsa hammaning ta’bini xira qilib yashaydi.

Muttahamga teng bo‘laman desang, sen ham muttaham bo‘lishing kerak.

Yaxshililingdan birovlar foydalanishadi-yu, yomonliging o‘zinga qaytadi.

Odam tanish uchun fursat kerak.

Sodda ko‘ringan muttahamdan qo‘rq.

Olishga o‘rganganning berishi qiyin.

Ishi yurishganning do‘stidan dushmani ko‘p bo‘ladi.

Ishlaydigan odam hamma joyda ham kerak.

Har qanday xulosaga avvalo kishining o‘zi kelishi kerak.

Muttaham dumini tutqazmaydi.

Ishlaganga ish ko‘p, ishlaganga ish yo‘q.

Qo‘llagan kishing ko‘pincha o‘zingning yo‘lingga g‘ov bo‘ladi.

Oilaviy muammolar hammada ham bor. Faqat hamma ham uni oshkor qilmaydi.

Muomalasi yo‘q kishiga yashash qiyin bo‘ladi.

Nodonning g‘alabasidan dononing mag‘lubiyati afzal.

Uzun emas, mazmunli umr ista.

Keksalarining aqli-yu yoshlarning g‘ayrati bilan ish qilish kerak.

Inson o‘zi uchun ham yashashi kerak.

Hisob-kitobi to‘g‘ri kishi arosatda qolmaydi.

Kim bilan o‘tirib turishni ham bilish kerak.

Molu davlatning o‘zi baxtli bo‘lish uchun kifoya emas.

Do‘stlikning ham haqqi bor.

Andishasizlik foydangga xizmat qilishi mumkin, lekin u hech qachon fazilat bo‘la olmaydi.

Nafs eng yaqin odamlarni ham bir-biriga dushman qilib qo‘yadi.

O‘zida bo‘lmagan kishi ming urinmasin harakatlarining soxtaligi bilinib qoladi.

Birovdan kutma madad, o‘zing qilgin harakat.

Odam ajratishdan yomoni yo‘q.

Ishni qilgan ko‘pincha chekkada qolib ketadi.

Zo‘rak obro‘ keltirar qayg‘u.

Ko‘pchilik imkoniyatlari bilan hisoblashmay, o‘zini noqulay ahvolga solib yuradi.

Birovning baxtiga hasad qilma, o‘zing ham baxtli bo‘lishga harakat qil.

Keraging bo‘lmasa, hech kim yo‘qlamaydi.

Pul topish oson, suyanchiq topish qiyin.

Bir nodon ming dononi qon qaqqhatadi.

Nodon aqlining birovdan kam emasligini ko‘rsatish uchun ham noto‘g‘ri bo‘lsa-da o‘zi aytgan ishni qiladi.

Hamma o‘z ishini bilib qilsa, nazoratga hojat yo‘q.

Ishni qoyil qilib qo‘y-da, keyin keril.

Farzandlarning ota-onalarini muhokama qilishga ma’naviy haqlari yo‘q.

Bir nojo‘ya qadam bir umrlik dog‘ bo‘lib tushishi mumkin.

Gap- so‘z ko‘paygan joydan qochib qutilgan yaxshi.

Odatda, o‘zi tayinli ish qilmaydiganlar tinimsiz boshqalarni muhokama qilishadi.

Natijasiz ustunlikning kimga keragi bor?

Dushmanning ham bori yaxshi - kishini hushyor torttiradi.

Burch bizni mas'uliyatga undaydi.

Minnat yuki tog‘dan og‘ir.

Har qanday yomonlikdan ham yaxshilik qidirib yashash kerak.

Yomonning baxti kulta, yaxshining sho‘ri quriydi.

Biz birovga emas, o‘zimizga nasihat qilishimiz kerak.

G‘azab otiga minib chopma - yiqilib mayib bo‘lishing mumkin.

Xatoni tuzatishga hamisha imkon bor.

Jahl chiqqanda hech kim to‘g‘ri muhokama yuritolmaydi.

Sirning fosh bo‘lish xavfi qaritadi.

Manfaat odamida samimiyat bo‘lmaydi.

Yuzi yo‘qqa farqi yuq.

Kimning aslida kimligini vaqt ko‘rsatadi.

Haq gap e’tiroz uyg‘otmaydi.

Johilga so‘z o‘qi ta’sir qilmaydi.

Yaxshi yashashga intilmasa, bunga insonning o‘zi aybdor.

Birovdan qizg‘anganing o‘zinga ham buyurmaydi.

Nodondan do‘st chiqmas.

Birovga yalinib o‘zingni hor qilgandan, o‘sha hojating bitmay qolgani yaxshi.

Vaqtini behuda sochib -sovurgan kishi baxtsizdir.

Ortig‘ini istagan boridan ham ayrıldı.

Qanday qilib kunni kech qilishini bilmaydigan odam baxtsizdir.

O‘zi buzilishga moyil bo‘lmağanni birov yo‘ldan urolmaydi.

Qilday gunohing bir kuni arqon bo‘lib bo‘g‘adi.

Bo‘lmağ‘ur fe’l-atvor avvalo insonning o‘zini xarob qiladi.

G‘amdan emas beg‘amlikdan qo‘rq.

O‘limni emas, hayotni o‘ylash kerak. Chunki hayot g‘animat, o‘lim esa muqarrar. Muqarrar narsaning g‘amini eb nima qilasan, u baribir yuz beradi.

Vaqt bilan hisoblashmagan yutqazadi.

Boylikni qabrga olib ketib bo‘lmaydi, lekin bilimni olib ketish mumkin. Shuning uchun bilimdon kishilarni qadrlash kerak.

Yillar qarashlarni o‘zgartiradi.

Sabr qila olsang, senga nohaq jabr qilganlarning jazo olishini ko‘rasan.

Nodonning nasihatni dononing kulgusini qo‘zg‘atadi.

Diyonatli do‘st - qiyomatli do‘st.

Dono o‘zining nodonligini tan olishi mumkin, lekin nodon bunga hech qachon rozi bo‘lmaydi.

Yuzi yo‘qdan xamma narsani kutish mumkin.

Ko‘pincha ayb o‘zimizda bo‘lgan holda o‘zgalarni aybdor qilamiz.

Yoqtirmagan kishingning mehribonchiligi ham jonning azobi.

Dushmanning mehridan do‘stning qahri afzal.

O‘ziga olmaganga gap ta’sir qilmaydi.

Dono hamisha bir gapdan qoladi, nodon hech qachon.

Pushaymonga o‘rin qoldirmay yashash qanday baxt.

Lazzatning umri qisqa bo‘ladi.

Nodonning ko‘zi ochilishi uchun aqli kirishi kerak. Aql esa unda hech qachon bo‘lmaydi.

Nodon va aql qarama-qarshi qutblar.

Dono umrini nodon bilan kurashib o‘tkazmaydi.

Burch muhabbatdan ustun.

Bolalarga qarab ota-onasiga baho beradilar.

O‘zi tarbiyasiz ota-onadan tarbiyali bola kutmang.

Haqiqat quyoshga o‘xshaydi – unga tik qarab bo‘lmaydi.

Ertadan umidi yo‘qning ertaga ehtiyoji ham yo‘q.

Ahmoqqa sabr begona.

Hamma o‘z ishini bilib qilsa, boshqalarga ortiqcha tashvish qolmaydi.

Ortingda iz qolmasa, yashading nimayu yashamading nima!

Ahdi yolg‘onning baxti yolg‘on.

Yolg‘onchi tilidan tutiladi.

Gunoh botqoqqa o‘xshaydi – oyoq qo‘ydingmi, qa’riga tortaveradi.

Vaqtning qadrini bilganimizda vaqto‘tib ketgan bo‘ladi.

Shodligingni begona bo‘lishgisi keladi.  
G‘amindan yaqining ham o‘zini olib qochadi.

Qat’iyatlari kishini hech kim yo‘lidan qaytarolmaydi.

Dono o‘zgaradi, nodon aslicha qoladi.

Ibratli umr – hikmatli umr.

Har qanday qadam yo yaxshilik, yo yomonlik sari bo‘ladi – ora yo‘l yo‘q.

Aybi yo‘qning xavfi yo‘q.

Nafs maqsaddan chalg‘itadi.

Ikkilangan to‘g‘ri qaror qabul qilolmaydi.

Haqiqatning tili achchiq bo‘ladi.

Nafsning quli – hammaning quli.

O‘ziga ishonmaganning hayoti jahannam.

Nodon dushmanidan battar.

Nodon mudom birovni aybdor qiladi.

O‘limdan qo‘rqmagan hech narsadan qo‘rqmaydi.

Nodon haqiqatdan qo‘rqadi, dono bo‘xtondan.

Birovga otgan toshing aylanib kelib o‘z boshingga tegadi.

Yaxshi odamni ko‘pincha o‘tib ketgandan keyin payqashadi.

Xohlagan shakliga kira oladigan odamlar bor.

Sinovlar kuchlini toblaydi, ojizni sindiradi.

Odamlarga kerak bo‘lib yashashdan ortiq baxt yo‘q.

Birovga emas, o‘zingga talabchan bo‘l.

Otaning qaddini nomunosib farzandlar bukadi.

Birovning hisobiga yashab bo‘lmaydi.

Barakaga erishishning siri mehnatni sevishdir.

Hurmat mehnatga ergashib yuradi.

Kasbni to‘g‘ri tanlash baxtdir.

Hunar va bilim mulkdir.

O‘z kasbini sevgan kishi osonlikcha charchamaydi.

Kasbni nafs emas, qalb tanlashi kerak.

Mutaxassis – o‘z kasbining shifokori.

O‘ziga ishonganni engib bo‘lmaydi.

Do‘st qiyofasidagi dushman xavfli.

Tiriklik majburiyatdir.

Hayot bir kun kuldirsa, bir kun yig‘latadi.

Yosh oldga boqadi, qari ortga.

Mehr bermay oqibat kutma.

Insonning ojiz tabiat ming bir balolarga giriftor qiladi.

To‘g‘ri qaror qilolmagan noto‘g‘ri ish qilishi tabiiy.

Baxtli keksalik mashaqqatli yoshlikning mevasi.

Umidsiz odam – jonsiz tana.

Iroda bo‘shligi baxtsizlikka yo‘l ochib beradi.

Oqimga qo‘shilib oqishdan osoni yo‘q, qarshi suzish qiyin.

Kunni boy bergen lahzaning qadriga etmaydi.

Ko‘ngilchanligimiz o‘zimizga pand, boshqalarga esa ish beradi.

Vaqtdan yutgan umrdan yutadi.

Xiyonatning eng xunuk ko‘rinishi, bu o‘zingni o‘zing aldab yashashingdir.

Nafsi yenganni hech kim yengolmaydi.

Dunyo qarama-qarshiliklar birligidan iborat ekan, yaxshining yomonga, yomonning esa yaxshiga duch kelishi tabiiy.

Umr – azob ichra o‘sgan baxt guli.

Nodon to‘g‘ri gapni ham egriga buradi.

Uzoqni ko‘zlagan ora yo‘lda qolmaydi.

Kim bilan birga bo‘lsang, o‘shanga tengsan.

Odamlarni gap – so‘zlaridan qo‘rqsang, hech nima qilmasliging kerak.

Qat’iyatsizni sindirish oson.

Buyuklik oddiylikda.

Maqsadi boshqa–boshqa kishilarning yo‘li tutashib ketishi qiyin.  
Taqdir bu insonning erishgani yo erishmagani.

Nafsingni tinchitmay o‘zing tinchimaysan.

Qanoatsizlik insonni emiradi.

Ichi qora odamda qasos tuyg‘usi kuchli bo‘ladi.

Nodonning o‘zi haqida bahosi hamisha yuqori.

Baxt qadriga etmaganni tashlab ketadi.

Nodonga gap tushuntirishga urinishning o‘zi nodonlik

Nodonning ko‘zini ko‘rgan – eshitgani emas, boshiga tushgani ochadi.

O‘ziga ishongan hech kimdan qo‘rqmaydi.

Kim yutib – kim yutqazgani marraga yetganda ma’lum bo‘ladi.

Qanday manzilga etishing qaysi yo‘ldan yurishingga bog‘liq.

Inson orzu qilishdan, hayot uni chippakka chiqarishdan charchamaydi.

Katta yo‘qotishlar emas, ikir-chikirlar odamni emiradi.

Ikkilanganning joyi arosat.

Yolg‘on bilan do‘stlikning umrini uzaytirib bo‘lmaydi.

Hayot insonning xohish–istaklari bilan hisoblashmaydi.

Umrini behuda o‘tkazish – g‘alvirda suv tashishday gap.

Ikkilanish – ojizlik belgisi.

Bu dunyo g‘amidan qutilishning birdan-bir yo‘li bor: u ham bo‘lsa – mehnat, mehnat va yana mehnat.

Yoshlikning behuda o‘tgan har bir kuni uchun qariganda tovon to‘laysan.

O‘tib ketgan umrni quvib etolmaysan.

Esda qolmagan kunlar – ma’nosiz kunlar.

Ishing tushmaguncha kimning kimligini bilmaysan.

Nodonning donolik da’vo qilishidan ham kulgili narsa yo‘q.

Soddaga ishonchi pand beradi.

Maqsad va qarashlar o‘zgarsa, do‘stlar orasiga raxna tushadi.

Yolg‘onchining biri ikki bo‘lmaydi.

O‘tganlarो‘gitini tilingda ming qaytar, dilingga kirib bormasa bekor.

G‘iybat – bekorchining ermagи.

Hadeb aldanib yashagandan umidni uzgan ham ma’qul.

Odamlarning ko‘zi o‘zini ko‘rmasa ham, o‘zgalarni ko‘radi.

Yukni bilak ko‘taradi, g‘amni yurak.

Sabab oshkora, gunoh yashirin.

Ishonchi yo‘qning quvonchi yo‘q.

Shodlik xursandchilik manziliga ranju mashaqqat yo‘li orqali boriladi.

Yomon qo‘shni ham umrning egovi.

Insonning butun telbaliklari nafs tufaylidir.

O‘qib o‘rganishga bir umr kamlik qiladi.

O‘z kuchini to‘g‘ri baholay olgan inson ulug‘dir.

Birovning aybidan so‘z ochilganda hammaning tili burro.

Qabriston – ibrat kitobi.

Bu dunyodan izsiz o‘tgan odamning shamoldan farqi yo‘q.

Umr kim uchun oltindan qimmat bo‘lsa, kim uchun tuproqday beqadr.

Xato qilishdan qo‘rqqan muvaffaqiyat qozonolmaydi.

Pul topish – mehnat, sarflash – san’at.

Hayotni aslida odamlar izdan chiqaradilar.

Tiling bilan diling bir emasmi, demak munofiqsan.

Yoshlikda orzu ko‘p bo‘ladi, qarilikda armon.

Insofsizning zolimdan farqi yo‘q.

Birov oldin, birov keyin – har kim qilmishidan topadi.

Yaxshilik ham, yomonlik ham bir kuni kelib bahosini oladi.

Dushmanidan do‘stlik kutma.

Dunyoni yaxshilik ushlab turadi.

Me’yorini unutgan halokatga mahkum.

Hayotda hamisha kuchli shaxslar yutgan.

Johil bilan talashgan oqil emas.

O‘zi to‘g‘rining so‘zi to‘g‘ri.

Ma’nan yuksak bo‘lmay nafs ustidan g‘olib bo‘lmaydi.

Yoshlikdan aqli bo‘lmasa, hech kim qarib aqlli bo‘lib qolmaydi.

Yashash uchun kurash - eng og‘ir va eng zoq kurash.

Nokas dasturxonidan taom eb, yana ayb topib ketadi.

Yillar davomida shakllangan fe'l - atvor bir kunda o'zgarib qolmaydi.

Axmoq kimsalar - insoniyatning fojea.

Halolning ham, haromning ham o'z hisob-kitobi bor.

Birovdan ta'ma qilish ham ma'naviy o'g'rilik.

Odamni atrofdagilar buzadi.

Odamning yurish-turishi, gap-so'zi, qilayotgan ishlaridan ham tafakkur darajasini bilsa bo'ladi.

Xohish hech nimani hal qilmaydi, harakat qilish kerak.

Mas'uliyatsiz kishi bilan do'st tutinmagan ma'qul.

Birovning aravasiga chiqqandan piyoda yurgan afzal.

Xudbin hamisha o'zining foydasigayu, boshqalarning zarariga ishlaydi.

Mashhur bo'lganing sayin dushmaning ham ko'payib boraveradi.

Qo'lidan ish keladigan kishini bir erda bo'lmasa, boshqa erda qadrlashadi.

Yaxshi nom qoldirish oson emas, buning uchun butun umrni sarflashga to'g'ri keladi.

Haqqini qo'ymaydiganlar ko'pincha yaxshi odamlar bo'lishmaydi.

Tortib olingan mol va mansab vafo qilmaydi.

Molu davlat kishining tilini uzun qiladi.

Nafsi yomonning rizqi erta qiyiladi.

Erta quvongan ko'pincha xafa bo'lib qoladi.

Inson hayot va o‘lim chegarasida yashab o‘tadi.

Odamlar o‘z sirlarini jon-jahdlari bilan yashiradilaru, lekin boshqalarnikini sahiylik bilan hammaga yoyadilar.

Nodon o‘tmishdan saboq olmaydi, keljakni o‘ylamaydi, faqat buguni bilan yashaydi.

Birovning boshiga ish tushsa, bir-biridan suyunchi oladiganlar ko‘payadi.

Dushmanning ochiq hujumidan do‘stning yashirin hamlasi yomon.

Dushmanlik ko‘pincha biz sira kutmagan tomondan keladi.

Bizni ko‘pincha shubhalanish hayolimizga ham kelmaydigan kishilar chuv tushirib yurishadi.

Men bolalarga hamma sharoitni yaratib berishga qarshiman. Albatta, ularni qo‘llash kerak, lekin o‘zi harakat qilsin.

To‘yu ma’rakalar, tadbirlar hech qachon tugamaydi-o‘zini bilgan odam uchun ular umr egovi.

Egri o‘ylaganni to‘g‘ri so‘ylayolmaydi.

Boshqani yomonlab, hech kim yaxshi bo‘lmagan emas.

Odamlarning bahosi o‘tkinchi: kecha seni yomon deganlar bugun seni yaxshi deyishi mumkin.

Yomonga yaxshilik qilib ham baloga qolasan.

Yomon o‘zining boshiga etgunicha qanchadan-qancha yaxshilarning boshi ketadi.

Yo‘lga soluvchilardan yo‘ldan uruvchilar ko‘p.

Me’yoridan oshsa mehru – muhabbat ham xor bo‘ladi.

Koshonada yashab ham baxtsiz bo‘lish mumkin.

Yomon nuqlu boshqalardan yaxshilik kutadi.

O‘zini hurmat qilmagan boshqani ham hurmat qilmaydi.

Yaxshilikni biladiganlardan bilmaydiganlar ko‘p.

Oqibati bo‘lmasa, qarindoshing ko‘pligidan nima foyda.

Odam qancha nodon bo‘lsa, shuncha o‘jar bo‘ladi.

Yaxshi mehmon mezbonning imkoniyatilarini hisobga oladi.

Odatda hech narsaga aqli etmaydiganlar o‘zlarini o‘ta aqlli hisoblaydilar.

Birov yo‘jni bor qiladi, birov borni yo‘q qiladi.

Farzand ota-onaning aksi bo‘lishi ham mumkin.

Dono o‘ziga hukm o‘qiydi, nodon birovga.

O‘zingni majburlamasang, hech nimaga erisha olmaysan.

Kim vayronada ham baxtli, kim koshonada ham baxtsiz.

Birovdan umid qilguncha o‘zing imkoniyat qidir.

Pichoq kabi aqlni ham charxlab turmasa, o‘tmashlashib qoladi.

Yaxshi niyat bilan qilingan mehnat, qanday samara berishidan qat’i nazar, taqdirlanishi kerak.

Umringning yarmi o‘zingni oyoqqa qo‘yish bilan o‘tadi.

Aqli odam ko‘zi etmagan narsaga va’da bermaydi.

Erka o‘sgan bola xudbin bo‘ladi.

Hikmat kishini dono qiladi, g‘iybat ado.

Hikmat yuksaltiradi, g‘iybat tubanlashtiradi.

Farzandining baxti ochilmasa – ota-onas uchun bundan ortiq kulfat bormi?

Hamma o‘z aravasini o‘zi tortganida olam guliston edi.

O‘z g‘aming qaddingni buksa, farzand g‘ami yiqitadi.

Davlat va amal kishi o‘zini tutib olganidan keyin kelgani yaxshi. Yoshlik va tajribasizlikda kelsa, kishi ularni eplolmay qolishi mumkin.

Muttaham va yolg‘onchidan do‘scht chiqmaydi.

Baxil pulini,nodon aqlini ishlatmaydi.

Hurmatini bilmagan hurmatga loyiq emas.

Birovni norozi qilish oson, rozi qilish qiyin.

Harom pulning barakasi bo‘lmaydi.

Do‘scht yuzingga gapiradi, dushman ortingdan.

O‘ziga yuqori baho bergen hech nimaga erisha olmaydi.

Nodon aqli gapni hazm qilolmaydi.

Nodon o‘zining nodonligi alamini donodan olmoqchi bo‘ladi.

Hammaga yaxshi bo‘lishga urinish ham munofiqlikka kiradi.

Insonni boshqalar emas, ko‘pincha o‘zi xorqiladi.

Ayol uydagi xazina.

Ayolning sarishtasi – ro‘zg‘orning farishtasi.

Do'st niqobidagi dushmanlar ochiq dushmanlardan hamisha ko'p bo'ladi.

Ba'zi ko'zlar faqat ayb ko'radi.

Ilm daraxti kech hosilga kiradi.

Yoshlik ko'pincha o'z kuchiga ortiqcha baho beradi.

Nodonga bas kelib bo'lmaydi, undan qochib qutulgan afzal.

Pulning ketidan quvgan o'zining halokati sari borayotgan bo'ladi.

Ko'ngil xotirjamligidan ortiq boylik yo'q.

Qanoat uchun ham matonat kerak.

Zamondan bir ortda qolsang, qayta etib olishing qiyin bo'ladi.

Qadrini bilmaganning qadri yo'q.

Bir qoringa siqqan bir hovliga sig'maydi.

O'zini bilmagan o'zini hor qiladi.

Mehnat har qanday dardga davo bo'ladi.

Mehnat – eng buyuk tabib.

Oqil o'zini mehnat bilan ovutadi, johil g'iybat bilan.

Ko'pchilik imkoniyatlarini hisobga olmay, va'da berib ketaveradi – natijada bajara olmay yolg'onchi bo'ladi.

Odamlar bor, daqiqalarini qizg'onadi.

Zang temirni emiradi, hasad umrni.

Go'zallik ba'zida baxt emas, baxtsizlik keltiradi.

Ishlayman degan kishiga ish topiladi.

Bolalariga mehr berolmagan ota-onaning ulardan ham mehr kutishga haqqi yo‘q.

O‘z hurmatini bilmagan xor bo‘ladi.

O‘zingdan kattalar davrasi seni tez ulg‘aytiradi.

Yolg‘onchi va’daboz bo‘ladi.

O‘ziga ishonmagandan har narsani kutish mumkin.

Va’dani quyuq qilganga ishonma.

Shakllanib bo‘lgan kishini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Yomondan yaxshilik kutma.

Odamlar aslida birovni ulug‘lash orqali o‘zlariga shon-shuhrat axtaradilar.

Kimni muhabbat bog‘lab turadi, kimni manfaat.

Tuzalishni istamagan nodonga tarbiya hayf.

Jamiyatga naf keltirmaydigan odamlar - tirik insonlar orasida o‘likdir.

Hayotning qadriga etmagan odam undan baxramand bo‘lishga ham loyiq emas.

Shunday odamlar borki, suvga tushgan xasdek hech bir maqsadsiz dunyodan o‘tib ketadilar. Ular suzishmaydi, oqim ularni olib yuradi.

Ilmsiz kishi – iliksiz suyak, unga hech kim qo‘l urmaydi.

Nodon bilan talashgan emas, unga qo‘l siltagan yutadi.

O‘ziga ishonmagan hech nimaga erishmaydi.

O‘ziga ishonchszlik insonni ado qiladi.

Ota-onal bolalariga ibrat bo‘lishi kerak.

Baxtni birov bermaydi, uni o‘zing kurashib qo‘lga kiritasan.

Andishao‘zingning ziyyoninggayu boshqalarning foydasiga ishlaydi.

Xohlab qilingan ish bilan zo‘rlab qilingan ishning o‘rtasida farq bor.

O‘z kuching bilan erishganiga yetmaydi.

Axmoq izzattalab bo‘ladi.

Nodonga o‘zining yolg‘oni afzal.

Nodon o‘zining har bir ishini to‘g‘ri deb o‘ylaydi.

Ba’zi noraso kimsalar boshqalarga ibrat uchun yaratilgan.

O‘ylab ish qilsang, hamma ishlar sening foydangga bo‘ladi.

O‘z xatti-harakatini tahlil qilish uchun ham kishiga aql kerak.

Hamma narsaning qadri yo‘qolganda bilinadi.

O‘z ahvolini to‘g‘ri baholayolmagan kishi boshqalarni qanday tushunsin.

Yaxshiga yaqinlashgan, yomondan uzoqlashgan yaxshi.

Zimdan yomonlik qiluvchilar ko‘p, afsuski, biz ularni ko‘pincha payqamaymiz.

Oqilona taqsimlangan vaqting hamma narsaga etadi.

Ko‘pdan ajralgan baraka topmaydi.

Yaxshi niyatni yomon niyat bilan amalga oshirishga urinmang.

Bilmagan narsasini gapirgan sharmanda bo‘ladi.

Nafs odamlarni ne ko‘ylarga solmaydi.

Ayol – bog‘, erkak – bog‘bon.

Bog‘ hamisha bog‘bonning parvarishiga muhtoj bo‘ladi.

O‘zing mashaqqat chekib erishmagan narsaning qadri bo‘lmaydi.

Nolish – nomardning ishi.

Bolamga yaxshi bo‘lay deb erka qilganlar aslida oyoq osti bo‘lishadi.

Taqdir taqdir deymizu, taqdiriga ko‘pincha odamning o‘zi sababchi bo‘ladi.

Yomonga teng bo‘lib o‘tirmang – u o‘z boshini o‘zi eydi.

Ishing har bir yurishganida kamida bitta dushman orttirasan.

Yaxshi kunda girdikapalak,  
Yomon kunda tumtaraqay.

Mehnatkash odam ishsiz qolmaydi.

Norozi bo‘lib berilgan narsa buyurmaydi.

Ba’zilar birovni yo‘lga solishdan ko‘ra yo‘ldan urishga moyil bo‘lishadi.

Birgina achchiq so‘z qanchadan-qancha odamlarning taqdirini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Yomonga yaxshilik qilsang ham baloga qolasan.

Samarasiz mehnat odamni ezadi.

Balodan uzoq yurgan ma’qul.

Johil bilan talashish oqillikdan emas.

Yomonning kasofati urmay qo‘ymaydi.

Men raqiblarimga qarshi kurashmayman – alamimni mehnatdan olaman.

Baxtidan yuz o‘girgan kishi baxtsizlikka uchraydi.

Dunyoqarashni quruq ilm o‘rganish emas, fikrlash kengaytiradi.

Yosh kuchiga ishonadi, keksa aqliga.

Muttaham gap topib beradi, ish emas.

Olimning xatosi - olamning xatosi.

Yurakni hovuchlab yashash odamni ado qiladi.

Aslida keraksiz ishlar ko‘p vaqtimizni oladi.

Biz ko‘pincha boshqalarga talab qo‘yamiz, o‘zimizga emas.

Tama rangni sarg‘aytiradi.

Nodon o‘zini ovorayu sarson qilib yuraveradi.

Aqli kishi maqsadsiz biror ish qilmaydi.

Nasihat berishga hamma usta, amal qilishga esa no‘noq.

Minnatli taom yuqmas.

Ba’zilar baxt daraxtining ildiziga o‘zi bolta uradi.

Ko‘pchilik baxti yonida turib, uni uzoqdan izlaydi.

Odam bolasi ko‘pincha o‘z boshiga baloni o‘zi sotib oladi.

Dunyoda falon yil yashasangu ortingdan hech nima qoldirmasang, umringning behuda o‘tganini shu emasmi?

Yomon bilan yashaganning umri qisqa bo‘ladi.

Shoshqaloqning hamma ishi chala.

Samarasiz mehnat insonniado qiladi.

Nodon hammaning kulgiyu nafratiga nishon bo‘lib yashaydi.

Boshingga ish tushganda o‘zini olib qochadiganlar do‘st emas.

Nazari past kimsadan ulug‘ odam chiqmaydi.

Umrинг seni tushunmagan odamlar ichida o‘tib ketayotganidan yomoni yo‘q.

Ishi ko‘p odam kunning qanday o‘tganini bilmaydi.

Fikrlamagan o‘smaydi.

Kim yo‘jni bor qiladi, kim borni yo‘q qiladi.

Kim farzandidan ko‘radi, kim farzandidan kuyadi.

Muttaham bir umr boshqalarning hisobiga yashaydi.

Maqtanishni do‘ndiradiganlar ko‘pincha ishni qoyil qilishmaydi.

Inson intilsa, iste’dodining yangidan-yangi qirralari ochilib boraveradi.

Talabchanlik bo‘shashgan joyda tartib bo‘lmaydi.

Boshingga bir ish tushsa, eng yaqinlaring ham yuz o‘giradi.

Yutug‘ingdan quvonmaydigan kishi do‘st emas.

Ko‘pincha ishni birov qilib, olqishni boshqa oladi.

Ro‘yobga chiqmagan ish kishini kasal qiladi.

Izzatini bilmagan xor bo‘ladi.

Yomonning ishi tuhmat.

Isrofgarning biri ikki bo‘lmaydi.

Yashashdan maqsad aslida boy bo‘lish emas, baxtli bo‘lish.

Bir kun harakatdan to‘xtasang, bir qadam orqaga ketasan.

Qancha qisqa gapirsa, shuncha ma’noli bo‘ladi.

Ko‘p gapning ichida bema’ni gap ko‘p bo‘ladi.

Qiyinchilik ko‘rmagan mo‘rt bo‘ladi.

Nolish – ojiz kishining ishi.

Kishi faqat o‘zining emas, boshqalarning ham vaqtini qadrlashi kerak.

Odamni mehnat ulug‘laydi, boylik emas.

Bolaga uch narsa berish kerak: tarbiya, bilim, hunar.

Har qanday soxtalik bir kun fosh bo‘ladi.

Birovni axmoq qilgan aslida o‘zining axmoqligini ko‘rsatgan bo‘ladi.

Yaxshining qadriga etmaganning kuni yomonga qoladi.

Inson har qanday holatda ham yashash uchun o‘zida kuch topishi kerak.

Maqsadsiz kishining hayotida ma’no yo‘q.

Ojiz do‘st ko‘pincha dushmanga aylanadi.  
Past tushsang tush, lekin past ketma.

Zar qadrini zargar biladi – uni temirchiga ko‘rsatib xor qilma.

O‘zing jim bo‘l, ishing gapirsin.

Vaqtingni to‘g‘ri taqsimlamasang, hech narsaga ulgurmaysan.

Har narsani o‘z xaridoriga ko‘rsatish kerak.

Ehtimol yaxshilikning chegarasi bordir. Lekin yomonlik chegara bilmaydi.

Fikrlovchi kishi tez qaror qabul qiladi.

Birov qiynalib yo‘l ochgach, undan yuradiganlar ko‘payadi.

Mardlik tilda emas, dilda bo‘ladi.

Birovlarga orqa qlib yashash ojizlik alomati.

Mag‘lubiyatini tan olish ham mardlikka kiradi.

Yolg‘on asosida qurilgan umr omonat bo‘ladi.

Bolalarni ortiqcha siylash ularga yomonlik tilashdir.

Qanoatsizlik kishini hor qiladi.

Qanoat tuganmas boylik.

Indashmassa ham odamlar kimning qandayligini juda yaxshi biladilar.

Ko‘nglida yomonligi bo‘lmagan kishi yomonni o‘ziga yaqin tutmaydi.

Harakat kishini maqsadga yaqinlashtiradi.

Hisob-kitobsiz odam uzoqqa bormaydi.

Dard mardni engolmaydi.

Odamning soddasi ko‘rganiga emas, eshitganiga ishonadi.

Nafrat joy olgan ko‘ngilda muhabbatga joy qolmaydi.

Bir so‘z bilan qolgan ko‘ngilni, ming maqtov bilan olib bo‘lmaydi.

Asosli tahlillar haqiqatga olib boradi.

Fikri bor kishining jim turishi qiyin.

Yomondan yaxshini ajrata olmagan odam har qadamda pand eydi.

Hech bir gunoh izsiz yo‘qolmaydi, bir kun kelib yoqangdan tutadi.

Yomonninginsofga kelishi – ushalmas orzu.

Ortiga emas, oldiga boqqan yutadi.

O‘zini o‘ylagan boshqani o‘ylamaydi.

Bu dunyoda o‘zingning og‘irligingni birovga tushirmay yashashdan ezgu ish yo‘q.

O‘z aravasini o‘zi tortgan odam baxtli.

Kim yaxshilikka sabab bo‘ladi, kim yomonlikka.

Birovning minnatini ko‘targandan tog‘ni ko‘targan afzal.

Mehnatning noni shirin lekin qattiq.

Ota-onaning haqqini ado etmay turib, farzandlik haqqini talab qilish uyat.

Xasislar hamisha oxir-oqibat yutqazishgan.

Yomonlik dardiga davo yo‘q.

Ko‘p narsani istagan ozidan ham quruq qoladi.

Qarz olishni boshladingmi, boshing qarzdan chiqmay qoladi.

Ojiz bo‘lsang, dard engib qo‘yadi.

Nafs bandasining holiga voy.

Yomon yaxshi yo‘lga boshlamaydi.

Oqil alamini mehnatdan oladi, johil g‘iybatdan.

Aybingni bilsang-u tuzatmasang, nima foyda.

Hech narsa mehnating samarasini ko‘rishday kishini xursand qilmaydi.

Qanoatsiz kishi o‘zini xarob qiladi.

Nafsiyi tiyolmagan umrini qiyadi.

Insonning ko‘p vaqtini arzimagan ishlar oladi.

Mas’uliyatsiz kishilar o‘zlarini ham, o‘zgalarni ham qiynaydilar.

Bu dunyo deb, u dunyoni baxosiz pulga sotganlar eng razil odamlardir.

O‘z rohatini o‘ylagan, egan-ichgan to‘ymagan vijdoniga havola, iymoniga havola. Shohanshohu o‘zicha, vijdoniga havola, iymoniga havola.

Kun ko‘rishga etmagan aql aqlmi?

O‘zini eplomagan boshqaga yuk bo‘ladi.

Nafsnинг shaklu shamoyili ko‘p.

Birovning siri bilan savdo-sotiq qiladiganlar bor.

Mehnat insonning yashash tarzi.

Kishini atrofdagilar buzadi.

Har qanday umrning so‘rog‘i bor.

Ko‘zi ochning umri qisqa.

Uchinchi kishi bilgan sir olamga doston bo‘ladi.

O‘zini o‘ylagan boshqalarga malol kelishi bilan ishi yo‘q.

Baxilga narsa odamdan aziz.

Insonning sha’ni hamma narsadan ustundir.

Bolaning o‘zida bo‘lmasa, ming turtki bekor.

Yomon do‘st faqat tashvish keltiradi.

Birovni aldagán aslida o‘zini aldaydi.

Suhbat ham tarbiya vositasi.

O‘zingga qaramasang ham, so‘zingga qara.

O‘zidan o‘zgani tan olmaslik xudbinlikdir.

O‘zi bo‘lolmagan boshqaning ham bo‘lishini xohlamaydi.

Reja bilan ishlagan yutadi.

Eriga to‘g‘ri gapirib bo‘lmaydi.

Yomonga yaxshilik yoqmaydi.

Lanj odam bilan bir narsani hal qilish qiyin.

Hasadgo‘y nafaqat birovning, balki o‘zining ham yo‘lini bog‘laydi.

Hayotning o‘zi muammolarni ko‘ndalang qo‘yadi.

Halol mehnatning zavqiga hech nima etmaydi.

Tekinxo‘rdan hamma bezor.

Bahona hech qachon o‘zini oqlamagan.

Egish oson, to‘g‘rilash qiyin.

Yashash uchun kurash bo‘lman joydaintilish ham, taraqqiyot ham bo‘lmaydi.

Nafs yo‘lidan yurgan adashadi.

O‘zini aldash birovni aldashdan yomon.

Ishning natijasi kishiga qanot bag‘ishlaydi.

Mehmon o‘z izzatini bilsa yaxshi.

Mas’uliyat tuyg‘usi bo‘lman kishiga hech narsani ishonib bo‘lmaydi.

Ehtiyyotkor kishining hayoti bir tekis kechadi.

Hamma o‘zinikini ma’qullaydi.

Birovning dardi boshqani hech qachon qiziqtirmagan.

Yomondan har narsani kutish mumkin.

Ishi yurishganni ko‘rolmaydilar.

Nafs odamni telba qiladi.

O‘g‘rilik mol hech kimga vafo qilmaydi.

O‘z qadrini bilgan oyoq ostida o‘ralashmaydi.

Albatta, o‘z darajangni bilganing yaxshi. Faqat kibru havoga berilmaslik kerak.

Odam bolasi nimani orzu qilayotganini bilishi kerak.

Oila muhiti – hal qiluvchi mактаб.

Burchdan og‘ir majburiyat yo‘q.

Suv bilan ekin o‘sar, tarbiya bilan – odam.

Haqiqatga tishi o‘tmagan yolg‘on to‘qiydi.

Har bir kishi vaqtি-vaqtি bilan o‘zini taftish qilib, tahlildan o‘tkazib turishi kerak.

Bu dunyoda kishiga o‘z mehnati samaralaridan ortiq quvonch va taskin yo‘q.

Qiyinchilik kishini sabru qanoatga o‘rgatadi.

Bu dunyoda yaxshilikka intilib yashash kerak.

Oltin – kumushning eskisi bo‘lmas,  
Ota-onaning bahosi bo‘lmas.

Yaxshi odamlar ko‘paysin desangiz, yaxshi onalarni ko‘paytiring.

Ayol – uydagi xazina.

Ayolning sarishtasi – ro‘zg‘orming farishtasi.

Ona – birinchi muallimdir.

Onaning orzusi – farzandining baxtidir.

O‘zini chetga tortgan chekkaga chiqib qoladi.  
Odamni nafsi sarson qiladi.

O‘zida yo‘q borni ko‘rolmaydi.

O‘zini hurmat qilgan birovning ustidan kulmaydi.

Cho‘zilgan ish - buzilgan ish.

Nima uchun yashayotganini bilmaydigan odam baxtsiz odam.

Birovni yomonlab hech kim obro‘ topmagan.

Ko‘pchilik manfaat yuzasidan do‘st tutinadi.

Birovlarning kaltafahmligi boshqalarga qimmatga tushadi.

Tajriba baribir o‘z so‘zini aytadi.

Andishasiz kishidan har narsani kutish mumkin.

Tarix ham, taqdir ham xatolarni kechirmaydi.

Ishi bitganga keraging yo‘q.

Xudbin birovning vaqtি bilan hisoblashmaydi.

Qat’iyatsiz kishini hayot bo‘ronlari chirpirak qilib o‘ynaydi.

Bilib bilmaganlikka olish ayyorlikdan.

Ko‘pchilik bolalarining ta’midotini tarbiyasidan ustun qo‘yadi.

Ko‘z hammasini ko‘radi-yu, o‘zini ko‘rmaydi. Shunga o‘xshab, inson ham ko‘pincha hammaning aybini ko‘rgani holda, o‘zinikini ko‘rmaydi.

Bekorchi hammaning ko‘ziga xunuk ko‘rinadi.

Ortiqcha takalluf ostida biror manfaat yashiringan bo‘ladi.

Odamni iroda boshqaradi.

Ishi bitgan tutqich bermaydi.

Har kim o‘z tengi bilan topishadi.

Ishi yo‘qning gapi ko‘p.

Hammani ayblab yurganning o‘zi ham sog‘ emas.

Odamlarning nazarida hech nima yashirin qolmaydi.

Ortingdan yurgan oldingga o‘tgach, seni mensimay qo‘yadi.

Mehnatkash sira ishsiz qolmaydi.

Orzularining ro‘yobi mehnat.

Qanoatsizlik insonni harob qiladi.

Birovning xizmatini kamsitish yaxshi emas.

Hayotga qarashing o‘zgarmay, turmushing o‘zgarmaydi.

Ori bor hor bo‘lmaydi.

Maslahatgo‘y hamisha ko‘p bo‘ladi, lekin yordam qiladigan kam.

Bir gapdan qolgan hamisha yutadi.

Inson ko‘nglida nima yashiringan – hech kim bilmaydi.

Tildagi zaharning manbai dilda bo‘ladi.

Mayda-chuyda gaplardan uzoq yurgan yutadi.

Odamga kulfat tilidan keladi.

Odamni tuzatadigan ham, buzadigan ham muhit.

Manfaatlar to‘qnashganda na qondoshlik, na do‘stlik andishasi qoladi.

Yolg‘on kishini beburd qiladi.

Yolg‘on yolog‘onchining o‘zidan o‘ch oladi.

Maqsadsiz ish zoedir.

Yaxshining qadriga etmagan yomon bilan qoladi.

Baxt tashqarida bo‘ladi, dard ichda.

Oson topgan oson yo‘qotadi.

Birovga ishongan quruq qoladi.

Bir xato ikkinchisini boshlab keladi.

Hayotning imtixonlari tugamaydi.

Yaxshilik umrga umr qo‘shadi,  
Yomonlik umrni qisqartiradi.

Nafsning ortidan quvgan tuzoqqa tushadi.

Odamlarni tanish uchun vaqt kerak.

O‘zingni majburlamay hech narsaga erisholmaysan.

Sog‘lom kishining birovdan yordam kutishi noshukurlikdir.

Silliq kechgan hayot yo‘q.

Johil ma’rifatdan g‘iybatni afzal ko‘radi.

Haqiqatning yuki og‘ir bo‘ladi.

Johildan do‘st chiqmas.

O‘zini eplolmagan farzand ota-onaga yuk.

O‘zi ishlagaganlar boshqalarni ham ishlagani qo‘yishmaydi.

O‘zini anglagan hamisha harakatda bo‘ladi.

Mustaqil fikri yo‘q kishi har maqomga yo‘rg‘alaydi.

Fiksizlik – ojizlik.

Ertadan umidi yo‘qning buguni sarob.

Chin do‘st ko‘p bo‘lmaydi.

Hamma o‘z ishini bilib qilganiga nima yetsin.

Vaqtni asosiy ishga sarflash kerak.

Nodon dushmanidan battar.

Dushmanga yaxshilik qilsang ham yoqangdan oladi.

Me’yordan oshgan insofsizlik – tubanlik.

Hayot – buyuk muallim: uning sabog‘idan bahramand bo‘lмаган kishiga har qanday ta’lim bekor.

Senga berilgan umrni sendan boshqa yasholmaydi.

Oqibati yo‘qning oxirati yo‘q.

Yo‘ldan urish oson, yo‘lga solish qiyin.

Qanoatdan ham hech kishi zarar ko‘rmagan.

Dunyoda eng uchqur nima?

Vaqt.

Eng kech pishadigan meva?

Aql.

Eng bedavo dard nima?

Pushaymon.

Tashvishsiz umrda mazmun yo‘q.

Hammaning ko‘nglini olib bo‘lmaydi, lekin hammaning ko‘nglini qoldirish mumkin.

Bir daqiqalik yolg‘on butun umr yiqqan hurmat-e’tiboringni bir daqiqada kunpayakun qilishi mumkin.

Qo‘rroq o‘z umrining egovi.

Iroda bo‘shligi baxtsizlikka yo‘l ochib beradi.

Umidsizlik – chekinish belgisi.

Kim gapni cho‘zadi, kim ishni.

Tiriklik daryosida harakat qilmagan cho‘kadi.

Engil hayotning hisobi og‘ir bo‘ladi.

Kishi qancha kam harakat qilsa, shunga ko‘p hasrat qiladi.

O‘zini bilgan xor bo‘lmas.

Aslida hayot murakkab emas, uni biz odamlar murakkablashtiramiz.

O‘ziga ishongan kishi qat’iyatli bo‘ladi.

Kunini behuda o‘tganiga xursand bo‘lish oqilning ishi emas.

Inson o‘z qadr-qimmatini avvalo oilasiga, keyin atrofdagilariga va nihoyat, jamiyatga qanchalik kerakli daraja bilan o‘lchashi kerak.

O‘z fikriga ega bo‘limgankishi kim nima desa o‘shanga ishonib ketaveradi.

Niyatning o‘zi bilan ish bitmaydi: uni amalga oshirish uchun intilish kerak.

Obro‘ orttirish boylik topishdan qiyin.

Orqaga qaytishda xosiyat yo‘q.

Ko‘ngilchanlikning foydasidan ziyoni ko‘p.

Bizning qo‘l-oyog‘imizni boshqalarga bog‘lab beradigan jilovsiz nafsimiz.

Vaqtni qizg‘anish – oqillik alomati.

Baxtini molu dunyodan izlagan adashadi.

Sabr – achchiq, ammo foyda beruvchi, qattiq, ammo ziyon – zahmatni daf etuvchi.

Sabr – tuyadir, og‘ir qadam, lekin manzilga olib boruvchidir.

Nodon boylikni baxtdan ustun qo‘yadi.

Umr insonga sochib-sovurish uchun berilmagan.

Vaqting indamay o‘tayotganidan xotirjam bo‘lma – bir kuni u har bir behuda o‘tgan lahza uchun so‘raydi.

Axmoqqa maslahat bersang, o‘zingga nasihat qiladi.

Ta’magirlik tilanchilikdan battar.

Jon-jahdi bilan intilgan maqsadga etmay qo‘ymaydi.

Yaxshilik unutilsa ham, yomonlik unutilmaydi.

Mahtanish – kibrlik alomati.

O‘ziga ishonmagan o‘zini ham, o‘zgalarni ham qiyab yashaydi.

Bir kishining nojo‘ya qilmishi ikkinchisining yo‘lini bog‘laydi.

Mol-dunyo ko‘zni och qilib qo‘yadi.

Gap so‘zlar o‘tadi, qilingan ish qoladi.

Omonat baxtni kuch bilan tutib qolib bo‘lmaydi.

Ortiqcha pul odamni buzadi.

Mehnat g‘amni unuttiradi.

Qadrini bilmagan xor bo‘ladi.

Ko‘krakka urib aytilgan so‘z ko‘pincha yolg‘on bo‘ladi.

Xudbin nuqulo‘z manfaatini ilgari suradi.

O‘zi ishlamagan boshqani ham yo‘ldan uradi.

Oila binosini kundalik janjallar emiradi.

O‘zi birovga bir nima bermay boshqalardan kutish tamagirlakdir.

G‘iybat tuhmatning bir shakli.

Qayg‘u asabni, asab vujudni charchatadi.

Minglarni o‘ylamaysovurgan birlarga zor bo‘ladi.

Hayotdan o‘tar muallim yo‘q.

Bu dunyoda tingan odam - bolalaridan tingan odam.

Xotira - insonning pok qalbidagi buyuk hislardan biri.

Ota-onaga muhabbat - barcha yaxshi fazilatlarning asosi.

Keksalarning qadriga etmasang,  
Baht ham sendan yuz o‘giradi.

Keksalarni hurmat qil, izzatini joyiga qo‘y, bir kuni vaqt kelib o‘zing ham  
shunday qartayasan.

Bolalar doimo ota-onalari bilan fahrlanishlari kerak.

Ota-onasini sevmagan odam dunyoning eng go‘zal sirlaridan bexabar

o‘tadi.

O‘zingni majbur qilmasang, hech narsaga erisholmaysan.

Aybiga iqror bo‘lish mardning ishi.

Biz hammadan ko‘proq vaqt ni suiiste’mol qilamiz.

Ishi yurishganga hasad qilishadi.

Oilaviy xotirjamlikdan ulug‘ baxt yo‘q.

Tayinli ish qilmagan kishi ko‘proq charchaydi.

Hadidan oshgan o‘z obro‘sini to‘kadi.

Temirni zang, miyani fikrsizlik emiradi.

Ko‘ngli toza bo‘lмаган одамгина г‘ибатдан бо‘шамайди.

Шогирдсиз одам – мевасиз дараст.

Нашукур одам бексосият бо‘лади.

Харом аралашган исхнинг баракаси бо‘лмайди.

Ақли кishi ming bir mashaqqat bilan erishgan narsasini tashlab ketmaydi.

Minnat savobni yo‘qqa chiqaradi.

Shukr qilsang, imoning butun bo‘лади.

Oqlil odamning bo‘sh vaqt bo‘lмайди.

Odamlar foydali ishlardan ko‘ra foydaiz ishlarni ko‘p qilishadi.

Har bir odamning hayotida ma’no bo‘lishi kerak.

Birovni gunohkor qilganning o‘zi gunohga botadi.

O‘z rohatini o‘ylagan, egan-ichgan to‘ymagan vijdoniga havola,  
iymoniga havola,  
Shohanshohu o‘ziga, vijdoniga havola, iymoniga havola.

Bu dunyo deb, u dunyoni bahosiz pulga sotdimku.

Umri besamar o‘tayotgan kishi vaqtdan noliydi.

Qayishmaydigan qarindoshning boridan yo‘g‘i.

Bizni taqdir emas, o‘zimizning nojo‘ya xatti-harakatlarimiz qayg‘u-hasratga botiradi.

G‘am odamni o‘ldirmaydi, irodasini sinaydi.

Kimdan nom qoladi, kimdan mol-dunyo.

Yo‘qotilgan yillar hammada ham bo‘ladi, faqat kimdir uning hissasini chiqarib oladi, kimdir yo‘q.

Bilib turib qilingan gunohning jazosi og‘ir bo‘ladi.

Ish ham hamisha mehnatkashni izlab yuradi.

Birdaniga ko‘p narsani orzu qilgan hech narsaga erisha olmaydi.

Ko‘p ko‘rgan ko‘p hikmat bilar.

Odamni boshingga ish tushganda sina.

Umr shunchalik qisqaki, charchoq va zerikish nimaligini bilmay yashash kerak.

Tiriklik va sog‘liqning o‘zi eng ulug‘ davlat.

Qotib qolmaslik uchun miyani fikrlashga undab turish kerak.

Mard gap tashimaydi.

Mehnatdan qochmagan yutadi.

Haddan tashqari (ziyod) mehr ham bolani buzadi.

Harakatsizlik odamni qaritadi.

Yaxshi, odam birovning g‘iybatini qilmaydi.

E’tiborsizlik xatoga olib keladi.

Ishtiyoq bo‘lmasa, harakat qaerdan bo‘lsin.

Hayot ilmini ko‘pchilik o‘rganolmay ketadi.

Ko‘po‘qisang, ko‘p bilasan.

Qarz – elkadagi yuk.

Vaqt - dononing sarmoyasi.

Hayot g‘amu tashvishlari do‘stlikni sinovdan o‘tkazadi.

Og‘ir kuniga yaramagan do‘stning boridan yo‘g‘i yaxshi.

Aslida hammaga ayb to‘nkagan kishining aybi ko‘p bo‘ladi.

O‘zidan bexabar boshqani gap qiladi.

Xudbinning do‘stligi dushmannikidan battar.

Donoga aql beradi, nodonga quruq gap.

Yomon tarbiyaning oxiri voy.

Xasis eng tuban kimsadir.

O‘zining fikri yo‘q boshqalarning fikri bilan yashaydi.

Nopoklik kirgan eshikdan halol qochadi.

Halol odam gap so‘zdan qochmaydi.

Halol mehnatdan yaxshi fazilat yo‘q.

Mehnatning o‘zi emas, samarasi muhim.

Hech narsani bilmagan hamma narsani bilaman deb o‘ylaydi.

Tilu dilni asrasang, umring uzun bo‘ladi.

Mingta yaxshililingni unutadilar-u,  
Birgina yomonligingni gapirib yuradilar.

Keraksiz mehnat kerakli natijani bermaydi.

Rag‘bat yo‘q erda g‘ayrat bo‘lmaydi.

Vaqtning ko‘pligi - ishning yo‘qligi.

E’tirof, bu - mehnatingga berilgan baho.

Ahvolingni o‘zgartirish uchun qayg‘u chekish emas, harakat qilish kerak.

Ishing tushsa, do‘stingga ham malol kelasan.

Minnat yaxshilikni yo‘qqa chiqaradi.

Tekin narsa aldab qo‘yadi.

Qo‘lidan ish kelmaganning hech kimga keragi yo‘q.

Nafsi g‘olibning o‘zi mag‘lub.

Harakat maqsad sari yo‘lni ochadi.

Har kim o‘z ishini qilsa, boshqalarga ish qolmaydi.

Birov qurib bergan baht binosi mustahkam bo‘lmaydi.

Tarbiyaning tamal toshi oilada qo‘yiladi.

Qo‘lidan ish kelmaganning bahonasi ko‘p.

Bu dunyoda mutlaq xotirjamlik yo‘q.

Sukut faqat rozilik emas, norozilik alomati ham bo‘ladi.

Aqlli kishilar bir-birlariga halaqit bermay, o‘z ishlarini qilishadi.

O‘zidan qo‘rqqan hammaga muammo tug‘dirib yuradi.

O‘zini anglagan vaqtini bexuda o‘tkazmaydi.

Insofni yo‘qotgan hamma narsani yo‘qotadi.

O‘z qadrini bilmagan xor bo‘ladi.

Yangilikni e’tirof etish hamisha qiyin kechadi.

Ota-onalar - bolalar uchun ibrat.

Insonning e’tiqodi – odobini belgilaydi.

Farzand - ota-onaning o‘zi haqidagi so‘zi.

Daraxt mevasi bilan aziz, inson farzandi bilan.

Farzand ota-onsa uchun jondir. Bordiyu u noqobil bo‘lsa, ozori jondir.

Ilmdan qudratliroq kuch yo‘q, bilim bilan qurollangan odam engilmasdir.

O‘qishda, mehnatda, fanda, ota-onaga va halqqa astoydil hizmat qilishda inson o‘z baxtini topadi.

Bir axmoqning ketidan ming kishi ovora.

Yomonning ko‘ngliga yaxshi hayol kelmaydi.

Ayimlar yaxshiligidan foydalanadilaru, evaziga yomonlik qaytaradilar.

Taqdir binosini har kim o‘zi quradi.

Shakllanib bo‘lgan kishini o‘zgartirib bo‘lmaydi.

Aqling kirguncha umring o‘tadi.

Noligandan hamma bezor.

Yolg‘izning hayotida fayz yo‘q.

Muttasil mehnatsiz hech nima ro‘yobga chiqmaydi.

O‘g‘rilangan molni sotib olgan ham o‘g‘rilikka sherik.

Nodonning o‘zidan ko‘ra boshqalarga ziyoni ko‘proq.

O‘zini majbur qilmagan hech nimaga erishmaydi.

Qadrlamagan mehnat ko‘ngilni sovutadi.

Chohga qulash oson, yuksaklikka chiqish qiyin.

Sabr qilsang, har qanday mustahkam temir eshiklar ham ochiladi.

So‘z zarbi tig‘ zarbidan kuchli.

G‘iybatchining tili uzun.

Boylik hirsi chohga etaklaydi.

Ehtiyyotini qilgan pand emaydi.

Mingta so‘zdan bitta ish afzal.

O‘ziga ishonmagan hammadan xavfsiraydi.

Yaxshilik oshkordir, yomonlik pinhon.

Xudbinning ko‘zi faqat o‘zini ko‘radi.

Omonat ipni birov uzishi shart emas - bir kuni o‘zi ham uzilib ketadi.

Nodon do‘st yoningdagi dushman.

Ochko‘zning nasibasi erta qirqiladi.

Muttaham o‘z manfaati uchun haqiqat talab qiladi.

Vatan oldidagi burch inson uchun muqaddasdir.

Kim o‘z yurtini sevmasa, u hech nimani qadrlay olmaydi.

Kimki Vatanini ardoqlamasa, oilasidan ham ayriladi.

Birovga qilganing o‘zingga qaytadi.

Isbotsiz fikr – quruq da’vo.

Ichi qora kimsa doim fitna qo‘zg‘ab yuradi.

Mehnat zavqini dangasa qaerdan bilsin.

Sabri yo‘qning baxti yo‘q.

Birovning baxtsizligiga sabab bo‘lishdan ortiq gunoh yo‘q.

Baxil birovning himmatini boshqadan qizg‘anadi.

Yosh kuchiga ishonadi, keksa aqliga.

Eski gaplarni qo‘zg‘ab yurish ko‘ngilning kirligidandir.

Xudbin mehrdan mosuvo.

O‘ziga yuqori baho bergen pand eydi.

Ba’zi odamlar qachon kerak bo‘lsang, o‘shanda yo‘qlashadi.

Biz yaxshi odamlar va ulug‘ insonlarni ko‘pincha ular o‘tib ketgandan keyin payqab qolamiz.

Aql yo‘li to‘g‘ri va samaralidir.

Fahmi yo‘qning farosati yo‘q.

Aqli raso hamma tomonni hisobga oladi, nodon bir tomonni.

Bir og‘iz so‘z birovning hayotini izdan chiqarib yuborishi mumkin.

Farosatsiz odam so‘zi bilan ham ko‘nglingni og‘ritadi.

Ishonch insonga kuch bag‘ishlaydi.

E’tirof g‘urur uyg‘otadi.

Xudbinga ishi bitsa bo‘ldi.

Yaxshi kunda hamma qarindosh,  
Yomon kunda hamma begona.

Gohida haqqi yo‘q haq talab qiladi.

Bugun meni g‘iybat qilganlar ertaga seni g‘iybat qilishi muqarrar.

Nafs ortidan ketganlarning holiga voy.

Muttahamning haqiqati manfaatparastlikdir.

Insofsiz o‘z boshiga o‘zi etadi.

Yo‘lini topmagan o‘zini har yoqqa uradi.

Ba’zilar shodligingni bo‘lishadilaru, tashvishingdan qochadilar.

Yomonga ming yaxshilik qil, qadringa etmaydi.

Mashaqatli mehnat saodatli kunlarga etkazadi.

Omonatga hiyonatdan og‘ir gunoh yo‘q.

Bekorchining bahonasi ko‘p.

Soxta iltifot darhol seziladi.

O‘zini eplomagan o‘zgaga yuk bo‘ladi.

Harakatchan kishi sog‘lom bo‘ladi.

Umrning mazmuni tarbiyalagan farzandlaring va amalga oshirilgan xayrli ishlaringda mujassam.

Bolalaring fazilatiga qarab senga baho beradilar.

Astoydil izlangan maqsadiga etadi.

Ta’ma ko‘ngilga yopirilgan ofatdir.

Umr – xazina, vaqt boylik.

Boylikni huda-behuda sovursang, xazina bo‘shab qoladi.

Nodon uzoqni ko‘rolmaydi.

Qanoat kamdan-kam kishilarga nasib etadigan bebaho ne’matdir.

Baxtga etishishning o‘zi kifoya emas, uni himoya qila bilish kerak.

Hayot tashvishlari irodasiz kishilarni sindiradi.

Izzattalablik ham o‘ziga xos ta’magirlik.

Ayol saramjon-sarishta bo‘lmasa, erkakning topganida baraka bo‘lmaydi.

Aql bo‘lmasa, kuch behuda.

Hayot imtihonidan hamma ham o‘tolmaydi.

Iste’dod hamisha el nazarida bo‘ladi.

O‘ziga ishonganni hech kim yo‘ldan urolmaydi.

Hamma ham ko‘nglidan nolishi mumkin, lekin hech kim aqlidan nolimaydi.

Odam bolasi ko‘pincha o‘ziga o‘zi qiladi-yu, boshqalardan ayb qidiradi.

Odamlarni natija qiziqtiradi, tafsilotlar emas.

Vaqt ham sarmoya, uni behuda ishlarga sarflamaslik kerak.

Qotib qolgan odamda fikru g‘oya bo‘lmaydi.

Nazari past kimsa ta’magir bo‘ladi.

Saodat-qanoatda.

Xudbin nodondan xavfli.

O‘z haddini bilmaslik xunuk oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Umidsiz kishi tushkun bo‘ladi.

O‘ziga ishonmagan hammadan xavfsiraydi.

Qanoatning ko‘zi yumilsa, nafsning ishtahasi ochiladi.

O‘ziga ishonchi yo‘qning hayotda quvonchi yo‘q.

Biz ajdodlarni qancha ulug‘lasak, avlodlar ham bizni shunchalik ulug‘lashi shubhasiz.

Yoshlar orzu bilan yashaydilar, keksalar xotira bilan.

Yoshmisan, keksani sen hurmat ayla, o‘zing ham qariysan hozirdan o‘yla.

Keksaga ko‘mak ber – suyangan tog‘ing,  
Buni tushunarsan qarigan chog‘ing.

Keksalarning hayoti ibrat.

Mazmunli umr qancha uzoq bo‘lsa, shuncha yaxshi.  
O‘tmishni o‘rgangan kelajakni tez ko‘radi.

Keksalikni donolik bezar,  
Yoshlikni – kamtarlik.

Shoshgan ko‘p yanglishadi.

Odamni tarbiyalaydigan ham, buzadigan ham muhit.

Manfaatparast birovga bekorga yordam bermaydi.

Kim baxtga etolmaydi, kim asrab qololmaydi.

Qariganda yoshlarga qo‘shilib kulgi bo‘lma.

Sen etguncha umr qadriga,  
Umr o‘tib ketgan bo‘ladi.

Manfaati yo‘q odam jon kuydirmaydi.

Nodon bilan talashganning o‘zi ham nodon.

Nafs yo‘li choh sari etaklaydi.

Mehnat qilib pul topgan, o‘ynab-kulib sovurmas.

Kishini qanoatsizlik ado qiladi.

Bu dunyoda topganiga shukur qilgan kishi baxtlidir.

Noshukur odam bexosiyat bo‘ladi.

Harom aralashgan ishning barakasi bo‘lmaydi.

Shukr qilsang iymoning butun bo‘ladi.

Dili bo‘shning tili bo‘sh.

Dili to‘g‘rining tilito‘g‘ri.

Yolg‘on aytib foyda ko‘rsang,  
Oxiri zarar topasan,  
Rost aytib, zarar ko‘rsang,  
Foyda topasan.

Yolg‘onchiga qo‘shilma,  
Rost so‘zingni yashirma.

Insofsizga erk bersang, elni talar.

Odamning dili bilan tili bir bo‘lsin.

To‘g‘ri bo‘lsang, bexavotir bo‘lasan.

To‘g‘ri bo‘lsang o‘sib borib gul bo‘lasan,  
Egri bo‘lsang o‘sib borib kul bo‘lasan.

To‘g‘ri odam egri so‘zdan or qilur.

To‘g‘ri so‘z achchiq bo‘lur.

To‘g‘ri so‘z boshni yorar.

To‘g‘ri so‘zga to‘siq yo‘q.

To‘g‘i so‘z qulogqa yoqmas.

Manmanlik qilib netarsan?

Obro‘yingdan ketarsan!

Toqatliga tog‘lar egar boshini,  
Toqatsizning birovlar er oshini.

Odam toshdan qattiq,  
Guldan nozik bo‘ladi.

Pokliging – sog‘ililing.

Sog‘ yuray desang, ozoda bo‘l.

Nonni katta tishlasang ham,  
Gapni katta gapirma.  
Narvonga chiqsang, shoshmay chiq,  
O‘z haddingdan oshmay chiq!

Sen o‘zingni maqtama,  
Seni birovlar maqtasin.

Quruq savlatdan quruq savat yaxshi.  
Betamizda bet bo‘lmas, bezorida uyat bo‘lmas.

Yolg‘onchining rost so‘zi ham yolg‘on bo‘lar.

Beparvo, loqayd odamlar dushmanidan ham xavfliroqdir.

Hayo – iymondandir.

Ma’naviyat – odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat qiladi.

Tabiat xasis emas,  
Tikandan gul, aridan bol yaratadi.

Amalga mag‘rur bo‘lsang, to‘zdiradi,  
Ilmga mashg‘ul bo‘lsang, o‘zdiradi.

Birovga qilsang zo‘rlik,  
O‘zingga kelar xo‘rlik.

Yomon yo‘ldosh yov bo‘lar,  
Ravon yo‘lda g‘ov bo‘lar.

Yo‘l quvlagan xazinaga yo‘liqar,  
Gap quvlagan baloga yo‘liqar.

Ko‘rganingdan ko‘p ekan ko‘rmaganing,  
Bilganingdan ko‘p ekan bilmaganing.

Minnatli oshdan beminnat musht yaxshi.

Nima qilsang xor,  
Shunga bo‘lasan zor.

Avval o‘z aybingni bil,  
Keyin birovdan kul!

Achchiq savol berib,  
Shirin javob kutma!

Bilmagan ishga urinma,  
Urinib tuzoqqa ilinma!

Bilmasang – bahslashma.

Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma,  
Nodon bilan sirdosh bo‘lma!

Yomonga yondashma, yaxshidan adashma!

Ko‘p yurganga ergashma, ko‘p bilganga ergash!

So‘zing bilan ishing bir bo‘lsin!

O‘zga elning sulton bo‘lguncha, o‘z elingni cho‘poni bo‘l.

Vatanni bilim va mehnat obod qiladi.

Vatan taqdiri – har bir kishining taqdiridir.

Burch – hayotning mazmunidir.

Burchi yo‘qning – burdi yo‘q.

Har bir odam avval jamiyat oldida, so‘ngra esa, o‘z qadri oldida burchdordir.

Doimo burchini ado etib yuruvchi odamlarning bag‘ri tog‘dek yuksak.

Burchini muqaddas deb bilgan odam taftishlardan ko‘r maydi.

Ma’naviyat – aql ko‘zgusi.

Ota-onani hurmatlash burchi – tug‘ilgandan o‘lgunchadir.

Bolalar kattalar orasida burchdor, kattalar esa bolalar oldida.

Erdan egan non bilan onaning sutini oqlash – muqaddas burchdir.

Vazifadagi burchni bilmasdan turib, sifatli ish qilib bo‘lmaydi.

Har bir mavjudot uchun hayot bitta va bir marta beriladi. Shuning uchun ham u behuda isrof bo‘lmasligi kerak.

Haqiqiy hayot – malomatlik, ozodlik, farovonlik va bilimdonlikda.

Hayot kitobini o‘qimagan ko‘p adashadi.

Hayotni yolg‘onning ustiga qurib bo‘lmaydi.

Odam hayotga topilganlarni yo‘qotish uchun emas, yangilarni topish uchun keladi.

Xalol va uddaburro odamlar uchun hayot juda lazzatlidir.

Eng og‘ir hayot yolg‘iz qolishdir.

Har bir kishi hayot bergenidan ortiq olsa, u insofsizdir.

Aql tugagan erda ahmoqlik boshlanadi.

Aqlliga ikki qulqamlik qiladi,  
Ahmoqqa esa bittasi ham ortiqcha.

Aqlli raqibdan emas, axmoq birodardan qo‘rq!

Kallasi to‘laning xamyoni bo‘sh bo‘lmaydi.

Donoga ergashsang, ko‘zing ochiladi, johilga ergashsang, yumiladi.

Fikri tor odamning – gunohi ko‘pdir.

Ko‘p bilmoqchi bo‘lgan kishi ko‘p eshitishi kerak.

Aql hammada bor, lekin uni har kim har xil ishlatadi.

Qulq solmaydiga odam kardan farq qilmaydi.

Aqlsiz adashdim demaydi.

O‘zini tergay olish donolikdir.

Hayotdagি barcha narsalar inson ahlining mahsulotidir.

Moddiy yordamdan ma’naviy yordam afzal.

Ilm – aql chirog‘i.

Ilmlи kishi ish boshqarsa, ishning yarmini ilmi qiladi.

Ilm bilan bilim topishganda insonni bezaydi.

Ilmni qanchalik ko‘p olgan sari, u ozdek bo‘lib tuyulaveradi.

Insonni bilim bilan odob bezaydi.

Odamni mansabiga emas, bilimiga qara!

Oltinlarga o‘ralib bema’ni yashagandan, mashaqqatlar chekib bilimga o‘ralgan afzal.

O‘qishni bitirganlar gullagan daraxtga o‘xshaydilar, chunki ularning ba’zilari meva tugsa, ba’zilari gullaganicha qolaveradi.

Miyani to‘ldirmasdan turib, qorinni to‘ldirib bo‘lmaydi.

Bilmaganlik – ayb emas, bilishga intilmaganlik ayb.

Ilmni kitobdan, bilimni hayotdan o‘rgan!

Hayotda yo‘l tanlash – bilimga bog‘liq.

Dashnomni tushunib etish uchun ham bilim kerak.

Avval o‘rgan, keyin o‘rgat.

Bilagi zo‘r birni yiqrar,  
Bilimi zo‘r-mingni.

Bilak bilan bitmagan,  
Bilim bilan bitar.

Bilim – davlatdan qimmat.

Bilimli – olim,  
Bilimsiz – zolim.

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,  
Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Davlat tugar, bilim tugamas.

Yoshlikda bilgani – toshga yozgani,  
Qarilikda bilgani – muzga yozgani.

Ilm-bilim erga emas, elga.

Ilmsiz bir yashar,  
Ilqli ming yashar.

Kitobsiz o‘qish – qanotsiz qush.

Kishi zinati – bilim.  
Olim aytgani – olam aytgani.

Yuzga kirsang ham hunar o‘rgan.

O‘qish jafoli, keti – vafoli.

Qadam qo‘y asta-asta,  
Qadam etguncha ilm ista.

Hunar bilan ilmnинг o‘g‘risi yo‘q.

Hunar bo‘lsa qo‘lingda,  
Non topilar yo‘lingda.

Hunarli er xor bo‘lmas,  
Do‘st – dushmanغا zor bo‘lmas.

Aqlli o‘zini ayblar,  
Aqlsiz – do‘stini.

Aqlsiz keksadan aqlli yosh yaxshi.

Dono hikmat keltirar,  
Nodon – kulfat.

Qo‘lidan kelgan – bajaradi, qo‘lidan kelmagan o‘rgatadi.

Odob – odam bezagi.

Odob – baxt qulfining kaliti.

Vijdon – poklikning sardori.

Yaxshi odam – vijdonning quliyu erkining xo‘jasidir.

Vijdoni pok odam g‘ururlidir.

Odamiylikning taqdiri vijdonning qo‘lida.

Vijdon g‘uborsiz bo‘lsa, hayot ozorsiz bo‘ladi.

Sof vijdonlilik odamning baxtidir.

Vijdon odamning qadr-qimmatidir.

Vijdon yolg‘onni ko‘rganda ingraydi.

Vijdonga qonunning keragi yo‘q.

Maxfiy yomonlik – vijdonning qotili.

Bir odamning vijdoni o‘zigagina emas, boshqalar uchun ham ahamiyatlidir.

Vijdonsiz suvni loyqatib baliq tutadi.

Mehnat hayotni mog‘or bosishdan saqlaydi.

Mehnatdan vujudga kelgan baxt shirindir.

Hayot og‘irliklarini mehnat yulib tashlaydi.

Oltin o‘tda odam mehnatda bilinadi.

Mehnatidan elni bahramand qilgan odam qadr topadi.

Ishini yolchitmagan yolchimaydi.

Mehnat uquvli odamni yaxshi ko‘radi.

Mehnatsiz daromadning rohati xijolatlikdir.

Barakaga erishishning siri mehnatni sevishdir.

Kasbni to‘g‘ri tanlash baxtdir.

Hunar toshdan gul undira oladi.

Hunar va bilim mulkdir.

Kasblar bir-birlari uchun xizmat qiladilar.

O‘z kasbini sevgan kishi osonlikcha charchamaydi.

Mutaxassis – o‘z kasbining shifokori.

Kasbi borning – baxti bor.

Kasbini e’zozlagan murodiga etadi.

Kasbini sevgan odamning g‘urbati bo‘lmaydi.

Qo‘l aql bo‘yrug‘idan chiqmasa, ish unumli bo‘ladi.

Kasbning olimi bo‘l, zolimi bo‘lma!

Halollikning qaddi – haqiqat qarshisida doimo tik.

Kimda kim halol yo‘l bilan badavlatlikka intilsa, u o‘zi uchun ham, jamiyat uchun ham foydali odamdir.

To‘g‘ri odamning bo‘yin egishiga kuni qolmaydi.

Xaromxo‘rlik – vijdon xo‘rlikdir.

Soxtalikning natijasi – beburdlikdir.

Nopok yashagan eldan ajraladi.

Kamolatlidan – nopoklik qochadi.

Daraxtda chiroyli bo‘lib pishib turgan meva tuproqqa botib ishlayotgan ildizining sadoqatidan hosil bo‘lgan.

Sadoqat diyorida manmanlik kasali bo‘lmaydi.

Sadoqat – iymonning farzandi.

Vatanga, oilaga va ota-onaga sadoqat – burchdir.

Qaysi yurtda kitob va ilmning qadri yuksak bo‘lsa, o‘sha yurtning kelajagi ham mustahkam va ishonchli bo‘lar ekan.

Vafosizdan oqibat so‘rama, chunki unda oqibatning o‘zi yo‘q.

G‘oya – ma’naviy xazina.

G‘oya – hayot yo‘lini yorituvchi chiroq.

Insonning e’tiqodi odobini belgilaydi.

E’tiqodli odam gunohdan qo‘rqadi.

Odam jisman kuchli bo‘lganidan ruhan kuchli bo‘lgani afzal.

Inson iymon bilan mukammal.

Iymoniga chang qo‘ndirmagan odam jannatidir.

Irodali odamda g‘oya kuchli bo‘ladi.

Bulut e’tiqodsiz bo‘lganidan, shamol uni xohlagan tomonga olib ketadi.

Loqayd odam diyonatsizdir.

G‘oya kurashida xalqparvar engadi.

Soxta hurmat – qalloblikdir.

Har eshikka tiqilgan bosh – qadrsiz bo‘ladi.

Davlatini yo‘qotgan – bir yil yig‘laydi, qadrini yo‘qotgan – umrbod

Daraxtning qimmati bergen hosiliga qarab belgilanadi.

Izzatini bilmagan qadrini yo‘qotadi.

Qadr-qimmatga erishgan odam mehr mevalarini teradi.

Insonning kamolotini javohirlar ham o‘lchay olmaydi.

Yomonning maqtashidan qoch!

Hurmatda – sharofat, xushomadda-kasofat bor.

Boshqalarning insoniy huquqlarini hurmat qiluvchi hurmatlidir.

Fidokorlik – inson faoliyatining oliy cho‘qqisidir.

Fidokordan to‘siqlar qo‘rqadi.

Fidokor vatanparvar va insonparvardir.

Hayot nuqsonlarini fidoyilar daf etadilar.

Fidokor birligi – tog‘ni ham qulata oladi.

Fidokorlik maqsadga erishtiruvchidir.

Fidokorlar zulmatni ham yorita oladilar.

Archa toshni ham yorib o‘sса olgani uchun mangu yashaydi.

Dunyoni obod qiluvchi fidokorlikdir.

Irodali odam omadni kutib o‘tirmaydi.

Sabr kuchli qalbni bezaydi, noshudni esa tobora ojizlaydi.

Irodasiz odam ozgina mashaqqatga ham asir bo‘lib qolaveradi.

Irodali odamning beli bukilsa-da, ahdi egilmaydi.

Sabr achchiq, ammo natijasi shirin.

Mo‘rt maqsad bilan g‘alaba qilib bo‘lmaydi.

Yaxshiga ham, yomonga ham ko‘nikib ketaveradigan odamda iroda bo‘lmaydi.

Irodasiz odamning ixtiyori o‘z qo‘lida emas.

Irodasiz – qo‘rqoq, qo‘rqoq esa, sotqin bo‘lishi mumkin.

Chidamlı odamning rohati ko‘p bo‘ladi.

Irodali odam har qanday baxtsizlikni ham enga oladi.

Tuturuqsizda iroda bo‘lmaydi.

Haqiqat – hayotning tayanchi.

Haqiqatni kesib ham bo‘lmaydi, to‘sib ham.

Haqiqat – zardan ham zo‘rdan ham zo‘r.

Muhit dardining shifokori – haqiqatdir.

Haqiqat – yolg‘onning jallodi.

Haqiqat yo‘q erda haqiqat o‘g‘rilari bo‘ladi.

Yolg‘onning tunidan so‘ng haqiqat quyoshi chiqishi muqarrar.

Egri terilgan g‘ishtning devori tezda qulaydi.

Vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q.

Va'daga vafo – mardning ishi,  
Va'dasiz – subutsiz kishi.

Daraht yaprog'i bilan go'zal,  
Inson-mehnati bilan.

Nodondan aql kutma,  
Bemurddan – nomus.

Odamning yuziga boqma, so'ziga boq.

Og'ziga kelganini demoq nodonning ishi,  
Oldiga kelganini emoq hayvonning ishi.

O'ylamay qilingan ish,  
Boshga keltirar tashvish.

Qunt bilan o'rgan hunar,  
Hunardan rizqing unar.

Davlating – ota-onang.

Davlating – o'g'il-qizing.

Davlatning boshi – farzand.

Yomon arava yo'l buzar,  
Yomon odam uy buzar.

Oltin-kumushning eskisi bo'lmas,  
Ota-onaning bahosi bo'lmas.

Onasi maqtagan qizni olma,  
El maqtagan qizdan qolma.

Ota bo'lmay, ota qadrini bilmas.

Nomusni yoshlikdan saqla!

Nomussiz yurmoqdan nomusli o‘lmoq avzal.

Odob kishining zebu ziynati.

Oriyatsiz odamdan kech.

Oshni katta oshasang ham, gapni katta gapirma!

Og‘zing bilan yurma,  
Oyog‘ing bilan yur.

Tanqiddan qo‘rqma, maqtovdan qo‘rq.

Eshik ochiq bo‘lsa ham, so‘rab kir.

Bir yigit qirq yilda bino bo‘lar.

Joy berganga joy ber,  
Jon berganga- jon!

Kelmaganning ketidan borma!

O‘z qadrini bilmagan, kishi qadrini bilmas.

Qadr bilmas qarindoshdan,  
Qadr bilgan yot yaxshi.

Qadrlasang, qadring oshar,  
Qadrsizdan hamma qochar.

Qaytarilgan so‘zning qadri yo‘q.

Kunda kelgan mehmonning qadri yo‘q.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug‘ bugungi dunyoda o‘zining qadr-qimmatini, g‘urur va nomusini anglab yashaydigan, o‘z kuch va qudratiga ishongan, o‘z mehnati va aql-zakovati bilan kelajagini qurishga va o‘z yurtini himoyalashga qurbi etadigan insonlarni davlat tan oladi va hurmat

qiladi. Ulug‘ maqsadlarga erishish yo‘lida Vatanimizning ertangi kuni, kelajagi bo‘lmish yosh avlodni tarbiyalash, farzandlarimizga zamonaviy bilim berish eng ustivor vazifamizdir.

Ulug‘ maqsadlarga erishish yo‘lida farzandlarimizga zamonaviy bilim berish hamda jonajon Vatanimizning ertangi kuni, kelajagi bo‘lmish barkamol avlodni tarbiyalashbiz pedagog ustozlarning ustuvor vazifamizdir.

Shundaylar bor senga lutf aylab,  
do‘stman deya qo‘lin tutarlar.  
Lekin har zum qadaming poylab,  
Xato qilishing kutarlar.

Yodingdami sen tug‘ilgan on,  
Hamma xandon, sen esa giryon.  
Shunday yashaginki ketar chog‘ingda,  
Sen borgin xandon, qolganlar esa giryon.

Bilimsiz kishilarning ko‘pchiligi xurofotga moyil bo‘ladi.

Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o‘rtaga kirib olishi bilan ish to‘g‘ri bormaydi.

Asalarilar ham o‘z jinsidan bo‘la turib, ishlamay kuvadagi asalni bekorga eb etganlarni o‘ldirib tashlaydi.

Ne’matning qadri u yo‘qolgandan keyingina bilinadi.

Tenglik xukm surgan joyda sotqin, aldamchi ehtiroslar, g‘am-g‘ussa bo‘lmaydi.

Ilm-fan taraqqiyoti haqida g‘amxo‘rlik qilish, avvalo, kishilar ustidan hukm yuritadigan shaxslarning burchidir.

Tili bilan zikr aytib, dili g‘ofil bo‘lsa, unday odamlarning holiga voy.

Millatni ma’rifat qutqaradi.

Umrni zoye’ etma, mehnat qil,

Mehnatni saodating qo‘lida bil.

Ilm Navoiy senga maqsud bil,  
Emdikim ilm o‘ldi, amal aylagil.

Odam bolasi sirkning oti emaski, qamchi qarsillaganda cho‘qillasa.

Katakda semirib yotgan tovuq uchishning foyda-ziyonini qayyoqdan bilsin.

Dushmaning otgan toshdan, jigaring otgan uvada qattiq tegadi.

Umr dan boshqa hamma narsaning qisqa bo‘lgani yaxshi. Umr sal uzun bo‘lsa, zarari yo‘q.

Odamzod hasad qilmasligi kerak. Havas qilish kerak. Havas qilgan odammurodga etadi.

To‘kilgandan tomchilagan yomon, to‘kilganni kishi darrov payqaydi. Tomchilaganni uzoq payqamaslik mumkin.

Rahbar degan kuzatuvchi emas, balki, barcha ishlarga bosh-qosh bo‘ladigan, mas’uliyat va javobgarlikni o‘ziga oladigan, og‘ir paytda boshqalarga namuna bo‘ladigan, tashkilotchi, kerak bo‘lsa, odamlarni o‘z ortidan ergashtirishga qodir, kuch-qudrati, irodasi baquvvat va iymonli inson bo‘lishi shart.

### *Farzandlarga nasihat.*

Vatanparvar bo‘ling, hayotda muvaffaqiyat qozoning, jisman va ruhan mukammal bo‘lish uchun mehnatni seving.

Yalqov bo‘lmang, g‘ayratli bo‘ling.

Hamma ishingizda tartib va intizomga rioya qiling.

Sizlarga jamiyat tomonidan topshirilgan vazifalarni bekamu ko‘st bajarishga harakat qiling.

Sharafingiz, nomusingiz va hayotingizni saqlang, boshqalarning ham

sharaf va orini hurmatlang.

Haqiqatni seving yurish-turishingizda sodda va tabiiy yo‘lni tuting.

Pok qalbli, vijdonli, haqshunos va samimiy bo‘ling.

Hur fikrli va do‘stparvar bo‘ling.

Hammaga mehribon, g‘amxo‘r va qanoatli bo‘ling.

Hurmatga sazovor bo‘lgan kishilar va narsalarga ehtirom qilishni unutmang.

Sharaf va nomusingizga dog‘ tushirish ehtimoli bo‘lgan har turli zavq-safodan voz keching.

Nasihatlarimga amal qilsangiz el-yurt oldida mening yuzimni yorug‘ qilgan bo‘lasizlar, farzandlarim.

Otalar so‘zi – aqlning ko‘zi.

Muharrir Sidikova K.A.  
Texnik muharrir Isroilova G.B.